جديد

2026-yil 9-oktyabr
№ 41 (145)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

“XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida **Do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi** shartnomani tuzish jarayonlarining yakunlanishi tarixiy voqea bo‘ldi”.

Shavkat MIRZIYOYEV

(Markaziy Osiyo yetakchilari Maslahat uchrashuvidagi nutqidan).

YETTIKUNLIK

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘lib turibdi. Tashrif doirasida Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo va Ozarbayjon davlat rahbarlarining sakkizinchi Maslahat uchrashuvi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi sammitida ishtirok etyapti.



Avaza og‘ozi

Turkmanistonning xushmanzara Avaza shahrida bo‘lib o‘tgan sammitni Markaziy Osiyoning besh davlati va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlikni mutlaqo yangi – “C6” formati doirasida chuqurlashtirish uchun tarixiy imkoniyat sifatida baholash mumkin. Ozarbayjonning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formatiga to‘laqonli a’zo sifatida qo‘shilishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tarixiy va madaniy rishtalar, o‘zaro ishonch va umumiy strategik manfaatlarga asoslangan chuqur integratsiya jarayonlarining yorqin ko‘rsatkichi bo‘ldi. Bu qadam “C5+1” mexanizmini “C6” formatiga aylantirib, mintaqalararo hamkorlikni sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi.

Zamonaviy dunyoda geosiyosiy raqobat kuchayayotgan, global beqarorlik ortayotgan va an’anaviy ta’minot zanjirlari izdan chiqayotgan bir sharoitda mamlakatlarimizning iqtisodiy va energetika xavfsizligini ta’minlash uchun mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish hayotiy zaruratga aylandi.

Mazkur kontekstda C6 formati ishtirokchilari o‘rtasida teng huquqli va ishonchga asoslangan siyosiy muloqotni mustahkamlash, o‘zaro savdo hajmini oshirish va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmi so‘nggi yillarda mintaqaviy jipslik va ishonchning bosh platformasiga aylandi. Mazkur jarayonga Ozarbayjonning ham to‘laqonli qo‘shilishi hamkorlik geografik qamrovini Kaspiyorti va Janubiy Kavkaz bozorlari tomon kengaytirmoqda.

Sakkizinchi Maslahat uchrashuvining kun tartibidan siyosiy va diplomatik muloqotni mustahkamlash, mintaqaning tashqi xatarlarga qarshi jamoaviy muzokaralar olib borish salohiyatini kuchaytirish, savdo-iqtisodiy va energetika sherikligi, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, energetika resurslarini yetkazib berish va “yashil” energetika loyihalarini muvofiqlashtirish, transport-tranzit bog‘liqligi, “O‘rta yo‘lak” va “Sharq–G‘arb” yo‘nalishlarini rivojlantirish, bojxona va raqamli logistika tartiblarini yengillashtirish, iqlim o‘zgarishi va ekologiya, Kaspiy dengizi sathining pasayishi, suv taqsimoti va ekologik monitoring bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni ilgari surish, madaniy-gumanitar aloqalar, ilm-fan, ta’lim hamda yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor masalalar o‘rin oldi.

C6 formatining eng muhim tayanch ustunlaridan biri – bu transport va energetika sohalaridagi strategik hamkorlikdir. Transport sohasidagi hamkorlik borasida so‘z ketganda, “O‘rta yo‘lak” koridori tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlash joiz. Sharq va G‘arb o‘rtasida barqaror va xavfsiz aloqalarni shakllantirishda, xalqaro savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishda ushbu yo‘lakning roli kun sayin ortib boryapti.

Ayni paytda mintaqaning ulkan potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun yashil energiya ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga tranzit qilish, shuningdek, raqamli va logistika infratuzilmasini integratsiya qilish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Sammit davomida mintaqaviy xavfsizlikning ajralmas qismi bo‘lgan ekologik kun tartibiga alohida e’tibor qaratildi.

(Davomi 2-sahifada).

TALQIN

SHOIR VA TEATR

Teatr san’ati paydo bo‘lgandan beri bu olamga bir bor nazar solgan insonki bor, uni o‘ziga maftun etmay qolmaydi. Ayniqsa, ijodkor, xususan, qo‘liga qalam tutgan adabiyot ahlining teatr dunyosiga oshufta bo‘lganiga doir anchayin afsona-yu rivoyat tusiga kirgan hayotiy voqea-hodisalar jahon san’at tarixida bisyor.



Bevosita shu dunyoda tug‘ilib, o‘sib, uni hayot mazmuniga aylantirgan Shekspir, Molyer yoki Hamza Hakimzoda kabi ulug‘larni aytmasa ham bo‘ladi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi sanalmish Erkin Vohidovning teatr olamiga oshuftaligi-yu daxldorligi nomlari zikr etilmish bu ulug‘larnikidan farqli, albatta. Erkin Vohidov adabiyotga shoir o‘laroq kirib keldi va shoir bo‘lib o‘tdi. Dunyoviy hayotining biror sahifasi yo‘qki, u shoirlikdan ayro ketib, boshqa adabiy janrlar dunyosiga batamom sho‘ng‘igan bo‘lsin. Shoirimiz neki ijod etgan bo‘lsin, barida shoir, barida inja ko‘ngil nazm zargari bo‘lib bo‘y ko‘rsatib turaveradi. Vaholanki, Erkin aka teatr va kino san’atiga ham yaqindan aloqador, bu faoliyatda ham cho‘ng iste’dodini namoyon eta olgan, haqiqiy san’at namunalarini yaratgan daqiq ijodkor edi.

(Davomi 5-sahifada).

MUMTOZ

MAXTUMQULI



Seni asti ko‘rmamisham, dildorim,
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?!
G‘amgin ko‘nglim xayolingda aldarman,
Bog‘ ichida gulgulmisan, namasan?!

Qorachami, yo sayidmi, xo‘jami,
Yo soqiymi, yo sharobmi, yo jommi,
Yo yilmisan, yo kunduzmi, kechami,
Yo oymisan, yo kunmisan, namasan?!

Yo mushkmisan, yo ko‘kinor anbarmi,
Ayto bilmam, yo charxmisan, chanbarmi,
Yo daryomi, yo mavjmisan, langarmi,
Yo girdobmi, yo quyunmi, namasan?!

Oltinmisan, kumushmisan, zarmisan,
Yo Arshmisan, kursimisan, yermisan,
Yo yoqutmi, marjonmisan, durmisan,
Yo chiroqmi, ravshanmisan, namasan?!

Maxtumquli, kech nomusdan, oringdan,
Qo‘l ko‘targil, bu vafosiz koringdan,
Jahon to‘la, sen g‘ofilsan yoringdan,
Ayt, mastmisan, yo shaydomi, namasan?!

KUZATUV

HURMATdan ZIDDIYATgacha

Insoniyat tarixida bilim berish jarayoni qadimdan ikki ustunga tayangan: bilim va uni beradigan inson. Ammo shu ikkinchi ustun – ustoz shaxsi turli davrlarda turlicha maqomga ega bo‘lgan. Sharq buni ideallashtirgan bo‘lsa, G‘arb ko‘proq kasbiy munosabat sifatida shakllantirgan.

USTOZ KIM, O‘RGATUVCHI KIM?

Alisher Navoiy do‘sti va maslakdoshi Sulton Husayn Mirzo saltanatida bosh vazir martabasiga ko‘tarilgan, o‘z davrining eng nufuzli shaxslaridan biriga aylangan edi. Shunga qaramay, u Abdurahmon Jomiyni umri oxirigacha o‘ziga pir va ustoz deb bilgan.

(Davomi 2-sahifada).

“Gul bir yon...”



(8-sahifada o‘qing).

FAKT

✓ **8-oktyabr kuni Avazadagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan bilan uchrashuv o‘tkazdi.**

✓ **AQSH hukumati mablag‘lari hisobidan tashkil etilgan Trans-Caspian Enterprise Fund (TCEF) investitsiya fondi mandatiga O‘zbekiston ham kiritildi.**

✓ **Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning yanvar–avgust oylarida O‘zbekistonda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi 22,3 trln so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,8 foizga oshgan.**

✓ **O‘zbekiston hamda Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Toshkentda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish masalalarini ko‘rib chiqdi.**

SAN’AT OLAMI

JADIDLAR JAVHARI

O‘zbekiston xalq artisti Gavhar ZOKIROVA bilan suhbat

– Gavhar opa, Sizning teatr va kinodagirollaringiznisahifa-sahifa ta’riflash mumkin. Siz faqat san’at emas, adabiyot ahlining ham sevimli namoyandalaridansiz. Ayniqsa, adib va shoirlar bilan bog‘liq qimmatli xotiralaringiz, go‘zal she’rlarning dilbar ijrolari muxlislar qalbidan joy olgan. Bizni esa gazetamiz mundarijasidan kelib chiqib, bir savol qiziqtiradi: Siz rostdan ham Abdulla Avloniyning evarasimisiz?

– Bugun buni faxr bilan baralla aytishim mumkin. Ha, men ulug‘ jadid Abdulla Avloniyning avlodidanman. Buni bolaligimdan bilar edim. Chunki onamning onasi, Avloniyning katta qizi Sora buvi talabalik yillarimda ham hayot bo‘lib, ularnikiga tez-tez borib turardim. Onamning ismi Turg‘unoy. Uyda Abdulla Avloniyning katta portreti turardi.

(Davomi 3-sahifada).

MUTOLAA

“YEVROPAGA SAYOHAT” TAASSUROTLARI

Bugun dunyo insoniyat ko‘zi oldida kichraydi. Bir zamonlar orzu bo‘lgan mamlakatlarga borish bir nafaslik yo‘lga aylandi. Ummon ortiga bir kunga borib, ertasi kuni uyiga qaytib kelayotganlar topiladi. Yaqin bir-bir yarim asrlik tarixda Yevropadan Turkistonga kelgan sayyohlar, olimlar, josuslar o‘z safar xotiralarini, yodnomalari va kundaliklarini yozib qoldirishdi. Ayrimlari o‘zbek tiliga tarjima ham bo‘ldi. Ularda biz to‘g‘rimizda aytilgan ko‘p gaplardan boxabarmiz.

Yaqinda “Yevropaga sayohat” nomli bir kitob qo‘limga keldi. Muallifi taniqli tarjimon – Mirzaali Akbarov. Menga tanish hududlar to‘g‘risida muallif yozganlari men uchun qiziq tuyuldi. Tezda o‘qidim va o‘qish jarayonida fikr-mulohazalar paydo bo‘ldi.

(Davomi 4-sahifada).

Avaza og‘ozi

Boshlanishi 1-sahifada.

Global iqlim o‘zgarishi oqibatlari, Orol dengizi fojiasi va suv resurslari taqchilligi bilan bir qatorda, Kaspiy dengizi sathining pasayib borayotgani jiddiy xavotir bilan ta’kidlandi. Bu holat qirg‘oqbo‘yi infratuzilmasiga, dengiz logistikasiga va umumiy ekologik vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu transchegaraviy ekologik muammolarni hal etish uchun tizimli va chuqur ilmiy yondashuvni qo‘llash, muntazam ma’lumot va axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, mintaqaviy darajada muvofiqlashtirilgan qo‘shma harakatlarni amalga oshirish zarurligi qayd etildi. C6 formatidagi oliy darajadagi muloqotlar yakunida qabul qilingan hujjatlar va erishilgan muhim kelishuvlar Markaziy Osiyo va Ozarbayjon o‘rtasidagi uzoq muddatli, strategik hamkorlikning aniq “yo‘l xaritasi”ni belgilab berdi.

Tarixiy ildizlari va umumiy maqsadlari bir bo‘lgan C6 mamlakatlari bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda yagona kuch, mustahkam iqtisodiy blok va Yevroosiyoning markaziy transport-energetika xabi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ozarbayjonning ushbu jarayonga faol qo‘shilishi Markaziy Osiyoning Janubiy Kavkaz, Turkiya va Yevropa bozorlari bilan aloqalarini mustahkamlab, mintaqaning global ta’minot zanjiridagi rolini keskin oshiradi. Zero, “C6” formati ishtirokchi davlatlarga tashqi kuchlar ta’siridan xoli tarzda ustuvor yo‘nalishlarni mustaqil belgilash imkonini beradi. Bu yerda suveren tenglik va o‘zaro manfaat tamoyillari asosiy poydevor sanaladi.

Davlatlar rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi shuni yaqqol namoyish etmoqdaki, ilgari tarqoq bo‘lgan Markaziy Osiyo bugungi kunda taraqqiyotning umumiy maqsadlari yo‘lida mustahkam birlashmoqda. Bu shunchaki geografik qo‘shnichilik bilan cheklanmaydi, aksincha, murakkab xalqaro voqelikka berilgan yagona, qat’iy va oqilona javobdir. Zero, yakka holda global inqirozlar, logistika zanjirlarining uzilishi va iqtisodiy turbulentlikka qarshi turish imkonsiz.

Ozarbayjonning Maslahat uchrashuvlari formatiga qo‘shilishi o‘zaro hamkorligimizni sifat jihatidan yangi, makromintaqaviy darajaga olib chiqmoqda. Ushbu qadamni ham geografik kengayish, ham juda chuqur geoiqtisodiy mantiqqa ega voqelik deb baholash mumkin.

Ozarbayjon Markaziy Osiyo uchun Kaspiy orqali Yevropa va Janubiy Kavkazga ochiladigan asosiy logistik darvoza hisoblanadi. Mintaqa davlatlari uchun Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Afg‘onistonni birlashtiruvchi yagona taraqqiyot makonini shakllantirish borasida tarixiy imkoniyat ochilmoqda. Ularning yagona transport-energetika va savdo zanjiriga birlashishi Yevroosiyoning qoq yuragida barqaror rivojlanish, o‘zaro bog‘liqlik va yaxshi qo‘shnichilik uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Maslahat uchrashuvlarining yangi formatga o‘tishi Markaziy Osiyo endilikda yirik gegemon davlatlar o‘rtasidagi “shaxmat taxtasi” yoki tashqi ta’sir maydoni emas, o‘z qoidalarini o‘zi belgilaydigan mustaqil va kuchli xalqaro subyektga aylanganini ko‘rsatdi.

Tashqi hamkorlar bilan muloqotda har bir mamlakat yagona va jipslashgan “Markaziy Osiyo ovozi” bilan chiqish qilishi uning global muzokaralardagi mavqeyini keskin oshirmoqda.

Turkmanistonning 2026-yildagi Hamdo‘stlik raisligi doirasida o‘tkazilayotgan MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisi tashkilot tashkil etilganining 35 yilligiga to‘g‘ri keldi. Unda Hamdo‘stlik makonida ko‘p tomonlama sheriklikning o‘tgan davrdagi sarhisobi qilinadi hamda savdo, erkin iqtisodiy aloqalar, xavfsizlikni ta’minlash va transport koridorlaridan samarali foydalanish istiqbollari belgilab olinadi. Bugungi kunda global siyosat va jahon iqtisodiyotida juda murakkab, shiddatli va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan jarayonlar kechmoqda.

Murakkab geosiyosiy to‘qnashuvlar, ko‘p yillik xalqaro institutlar rolining zaiflashishi va global yetkazib berish zanjirlarining uzilishi sharoitida dunyo mamlakatlari yangi barqarorlik va hamkorlik nuqtalarini izlamoqda. Ana shunday tahlikali va beqaror bir vaziyatda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi o‘zining yashovchanligi, sinalgan barqarorligi va zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi tura oladigan muhim, zarur tuzilma ekanini amalda qayta-qayta namoyish etmoqda.

Jahon iqtisodiyotida vaziyat murakkablashib, ko‘plab mintaqalarda proteksionizm (ichki bozorni begonalardan sun’iy himoya qilish va cheklash) kayfiyatlari kuchayayotgan bir paytda, MDH makonida ochiqlik va erkin savdo tamoyillarini saqlab qolish o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev juda ko‘p chiqishlarida erkin savdo yo‘lida to‘siq bo‘lib turgan ayrim muammoli masalalarni yechishga chaqirib keladi. Ayni paytda O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarida ijobiy va barqaror dinamika kuzatilmoqda.

O‘tgan yili mamlakatimizning MDHdagi sheriklari bilan tovar aylanmasi hajmi 11 foizga o‘sdi. Joriy yilda ham o‘zaro savdo hajmida barqaror va yuqori o‘sish sur’atlari saqlanib qolmoqda.

Agar Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlar so‘nggi yillarda yangi nafas olgan bo‘lsa, O‘zbekistonning MDH doirasidagi faoliyati ham 2017-yildan buyon tubdan o‘zgarib, tizimli va amaliy tus oldi. Bugungi kunda O‘zbekiston Hamdo‘stlikning barcha ustav idoralari – davlat va hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari, chegara qo‘shinlari qo‘mondonlari, iqtisodiy kengashlar va parlamentlararo assambleyalar ishida eng faol ishtirokchilardan biridir.

Prezidentimizning MDH sammitlaridagi ishtiroki doirasida qabul qilingan hujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida maxsus “Yo‘l xaritalari” amalga oshirilmoqda. Natijada O‘zbekiston sohaviy hamkorlik bo‘yicha 24 ta idoraga qo‘shildi va Hamdo‘stlikning 86 ta organidan milliy manfaatlarga to‘la javob beradigan 66 ta tuzilma faoliyatida qatnashyapti. Joriy yilda Turkmaniston MDHga raislik qilmoqda, O‘zbekiston esa Hamdo‘stlikning kelajakdagi tadbirlari va strategik vazifalarini amalga oshirishda yaqin ko‘makchi va faol hamkor sifatida qatnashayotgani diqqatga sazovor. Avaza uchrashuvlarining eng muhim siyosiy-falsafiy jihati shundaki, ular mintaqaviy format va keng ko‘lamli MDH maydoni o‘rtasida hech qanday raqobat yo‘qligini, aksincha, ular bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi ko‘p bosqichli tizim ekanini yaqqol isbotlamoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz MDH va uning sohaviy tuzilmalari orqali kengroq Yevroosiyo makonidagi savdo-iqtisodiy, transport, xavfsizlik, innovatsion va gumanitar aloqalarni jadal rivojlantirmoqda. MDHning navbatdagi sammiti esa sanoat kooperatsiyasi, raqamli texnologiyalar, ilmiy-texnikaviy hamkorlik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Uchrashuvlar yakunida qabul qilinadigan qo‘shma hujjatlar to‘plami erishilgan kelishuvlarga huquqiy asos yaratadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan puxta o‘ylangan tashqi siyosat O‘zbekistonning mintaqaviy va global miqyosdagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirib, xalqlarimiz farovonligi va tinchligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Iqbol MIRZO

ILDIRGI: *Sarlavhadagi “og‘oz” so‘zi ildizi bir bo‘lgan mumtoz turkiyda “rivojlanish nuqtasi” ma’nosida keladi.*

HURMATdan ZIDDIYATgacha



Shoma’ruf QOSIMOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi xodimi

Boshlanishi 1-sahifada.

Saroy fitnalaridan charchab, mansabidan voz kechmoqchi bo‘lgan chog‘ida ham, aynan Jomiyning maslahati uni bu qaroridan qaytargan edi. Jomiy vafot etganida esa mamlakatning eng qudratli amaldorlaridan biri bo‘lgan Navoiy shaxsan uning dafn marosimini boshqargan, so‘ngra ustozi xotirasiga “Xamsat ul-mutahayyirin” (“Besh hayrat”) nomli maxsus asar bag‘ishlab, ular orasida bo‘lib o‘tgan o‘n oltita xotira-voqeani, o‘zaro yozishmalarini avlodlarga meros qilib qoldirgan. Mana, ustozning o‘rgatuvchidan farqi qayerda?!

Buyuk muhaddis Imom Buxoriy ustozining bolalari ko‘chada o‘ynab yurib, goh uning eshigi oldiga kelib qolsa, o‘rnidan turar ekan. Buxoriydan: “Nega har safar bu bolalar eshik oldiga kelganida, o‘rningizdan turasiz?” – deb so‘rashganida, kamoli ehtirom bilan: “Ustozimning hurmati uchun ”, deb javob bergan ekan.

Xuddi shunday, haqiqiy ustoz shogirdga faqat fanni, kasbni yoki hunarni o‘rgatib qo‘ya qolmaydi, o‘z hayoti, xatti-harakati, so‘zi va sukuti bilan shogirdga yashash namunasini ko‘rsatadi. Yanayam aniqroq aytganda, shaxsan o‘zi bosib o‘tgan yo‘l orqali qanday yashash kerakligini isbotlab beruvchi insondir. Shuning uchun ham xalqimiz “ustoz ko‘rgan shogird” bilan “ustoz ko‘rmagan”ni ikki xil taqdir egasi sifatida ajratadi. Chunki birinchisi nafaqat bilim, balki hayot falsafasini ham o‘zlashtirgan bo‘ladi.

HURMAT ORTIDAGI YETUKLIK

Xo‘sh, ustozga hurmat shunchaki paydo bo‘lgan, deysizmi? Yo‘q, albatta.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xuroson ilm-fan markaziga aylanganda, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar davrida ustoz-shogird zanjiri ilmning uzluksizligini ta’minlovchi asosiy mexanizm bo‘lgan.

Ibn Sino yoshligida qancha ustozlardan ta’lim olganini, keyinchalik esa o‘zi qancha shogird tarbiyalaganini “Tarjimayi hol”ida tilga oladi. Yoki Amir Temur va Temuriylar davriga murojaat qilsak, hukmdorlarning o‘zi ilm ahliga, xususan, ustozlariga alohida hurmat ko‘rsatgani tarixiy manbalarda ko‘p bor qayd etilgan.

Sohibqironning o‘z ustozlariga bo‘lgan munosabati bu an’ananing eng yorqin namunalaridan biri sifatida alohida to‘xtalishga arziydi. Temuriylar davri solnomalariga asoslangan tarixiy manbalarda qayd etilishicha, yosh Temur



ilk saboqni Alibek ismli muallimdan olgan, yetti yoshga to‘lgach, Shayx Shamsiddin degan ustozidan Kalom ilmini o‘rgangan va Qur’on oyatlarini yodlagan. Keyinchalik Sohibqiron o‘zi qo‘lga kiritgan barcha zafarlarini aynan shu pir-u ustozlari Mulla Alibek, Shayx Shamsuddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Tayobodiy va Mir Sayyid Baraka nomlari bilan bog‘lagani manbalarda alohida ta’kidlanadi.

Rivoyatga ko‘ra, 1391-yilgi hal qiluvchi jangda Sayyid Baraka jang maydonida “Yog‘iy ko‘chdi!” – ya’ni, dushman qocha boshladi, deya jangchilarni ruhlantirgan. Manbalarda, shuningdek, Sohibqiron davlat va harbiy masalalarda o‘z piridan maktub orqali maslahat so‘ragani, masalan, To‘g‘luq Temur tahdidi oldida “uning oldiga borib, o‘q-yoyini tortib olish” kabi dadil yo‘l-yo‘riq olgani qayd etilgan. Bu bog‘liqlik umr oxirigacha davom etadi, Sayyid Baraka vafotidan so‘ng, Shohruhning vasiyatiga ko‘ra uning jasadi Samarqanddagi Go‘ri Mir maqbarasiga, Temurning o‘zi esa keyinchalik ustozining poyiga dafn etiladi.

Bu voqealar shuni ko‘rsatadiki, buyuk sarkarda uchun ham ustozga bo‘lgan hurmat shunchaki marosim emas, balki siyosiy va shaxsiy amaliyotning ajralmas qismi bo‘lgan. U piru murshidlariga saroyida to‘rdan joy bergan va ularning duosisiz qadam tashlamagan. Bu munosabat Sohibqironning o‘z tilidan keltiriladigan “Temur tuzuklari” asarida ham aniq davlat siyosati darajasida mustahkamlangan. Saltanatni boshqarish tuzuklarini sanar ekan, Temur o‘ziga bo‘ysungan barcha mamlakatlarning sayyid-u ulamosi, shayx-u fuzalosini aziz tutish zarurligini alohida ta’kidlaydi hamda ularga suyurg‘ol va oylik belgilash, mudarrislarga esa kundalik maosh ajratishni davlat vazifasi sifatida belgilaydi. Demak, ustozga hurmat Sohibqiron uchun shaxsiy fazilatgina emas, balki qonun darajasiga ko‘tarilgan davlat tamoyili ham bo‘lgan.

Bunday munosabatning ildizi Konfutsiy Xitoyida ham kuzatiladi. “Ustoz” tushunchasi oilaviy iyerarxiyaga tenglashtirilgan, shogird ustoziga umrbod sadoqat bilan bog‘langan deb hisoblangan. Demak, Uzoq Sharqdan tortib, Yaqin Sharqqacha bo‘lgan mintaqada ustoz maqomi ijtimoiy-axloqiy institut darajasiga ko‘tarilgan. Sharqning yana bir qutbi – Xitoy va unga qo‘shni Uzoq Sharq mamlakatlari ustoz maqomini boshqacha, ammo yana ham institutsional tarzda muqaddaslashtirgan. Bu yerda ham ustozga hurmat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan tushuncha bo‘lgan.

Xitoy tarixida ustozga ehtiromning eng mashhur ramziy voqealaridan biri X–XII asrlarda hukm surgan Sun sulolasi davrida yuz bergan Cheng eshigi oldida qorda turish rivoyatidir. Yosh olim Yang Shi va uning safdoshi mashhur faylasuf Cheng Yidan saboq olish uchun uning uyiga boradilar. Ammo ustoz o‘sha payt mudrab o‘tirgan bo‘ladi. Ular pirining tinchini buzishni istamay, uni uyg‘otmasdan, eshik oldida sabr bilan kutib turishadi. Tashqarida esa qattiq qor yog‘a boshlaydi. Cheng Yi uyg‘onib, eshikni ochganida, ikki shogird boshdan-oyoq qorga ko‘milgan holda, hamon o‘sha joyda turgan bo‘ladi. Shu voqeadan keyin bu ibora Xitoy madaniyatida ustozga cheksiz hurmat va ehtirom ko‘rsatishning ramziga aylangan va bugungacha o‘qituvchilarni ulug‘lash timsoli sifatida qo‘llaniladi.

DO‘STONA MUHIT

G‘arb sivilizatsiyasining ildizi bo‘lgan qadimgi Yunonistonda bu munosabatlar ancha boshqacharoq. Suqrot o‘z shogirdlari, jumladan, Aflotun bilan muloqotni tayyor haqiqatni aytish emas, balki birgalikda uni izlash jarayoni sifatida qurgan. Masalan, savol-javob orqali fikrni uyg‘otish shogirdni passiv qabul qiluvchi emas, faol fikrlovchi qilib tarbiyalaydi. Aflotun, o‘z navbatida, Arastu bilan ham xuddi shunday tahliliy dialog uslubidan foydalangan. Arastu keyinchalik ustozining ba’zi qarashlariga e’tiroz bildirishi esa Sharq an’anasida kamdan kam uchraydigan holat.

O‘rta asrlar Yevropasida Bolonya, Parij, Oksford singari universitetlar paydo bo‘lishi bilan ustoz-shogird munosabati yanada institutsionallashadi. Ustoz endi shaxsiy pir emas, balki universitet tuzilmasidagi lavozim egasi sifatida ko‘rila boshlaydi. Uyg‘onish davrida esa individualizm g‘oyalarining kuchayishi bilan shogird ustozidan mustaqillashishi, hatto unga qarshi chiqishini “intellektual yetuklik” belgisi sifatida qabul qila boshlaydi.

XVIII asrda Fransiyada Volter va uning shogirdlari o‘rtasidagi munosabat yoki Russoning ta’lim falsafasidagi “tabiiy erkin tarbiya” g‘oyasi shuni ko‘rsatadiki, G‘arb ma’rifatparvarligi ustozni “hokim”dan ko‘ra “yo‘l ko‘rsatuvchi”ga aylantirishga intilgan. Bu yerda maqsad shogirdni tezroq mustaqil fikrlashga o‘rgatish, undan uzoqlashtirish emas, balki uni ustozidan “ozod qilish” edi.

USTOZLIK MAQOMIGA QO‘SHILGAN JASORAT

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadid harakati ustoz maqomiga butunlay yangi, o‘ziga xos tus berdi. Bu davrda ustoz endi faqat bilim yoki hunar o‘rgatuvchi shaxs emas, balki butun bir millatni uyg‘otish, yangi fikrlash tarzini singdirish vazifasini zimmasiga olgan jamoat arbobiga aylandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadid ustozlar bir vaqtning o‘zida muallim, jurnalist, dramaturg va millat yetakchisi edi. Bu ustozlik fidoyilik va o‘z shaxsiy manfaatidan voz kechish bilan uyg‘unlashgan. Ular xalq va millat uchun hatto o‘z uyida maktab ochgani, bepul ta’lim bergani barchaga ma’lum.

Bu davrda ustozlik maqomiga jasoratsiz erishish mumkin emasdi. Ma’rifat tarqatish, xalqni yangicha fikrlashga chorlash ko‘pincha hayot xavfi bilan bog‘liq bo‘lgan. Jadidlar davri ustoz tushunchasiga yangi bir qatlam qo‘shdi, endi ustoz bo‘lish nafaqat bilim va ma’naviyat yo‘lida yetakchilik qilish, balki shu yo‘l uchun eng qimmatli narsani – hayotni tikishga ham tayyor turishni anglatardi. Shu bois, bugun jadid ustozlarni eslaganda, ularning ismi doimo ikki sifat bilan yonma-yon keladi: ma’rifatparvar va jasur.

ZAMON VA USTOZ

Bugungi globallashgan dunyoda bu ikki an’ana bir-biriga uyg‘unlashib ketmoqda. Sharq mamlakatlarida ustozga hurmat hamon kuchli ijtimoiy norma sifatida shakllanibgina qolmay, zamonaviy ta’lim tizimi G‘arbning tanqidiy fikrlash, savol berish, bahslashish madaniyatini ham o‘zlashtirmoqda.

Bu o‘rinda yana bir achchiq haqiqatni yashirib bo‘lmaydi. Yuqorida ta’riflangan barcha hurmat an’anasi – Ibn Sinodan Behbudiygacha, Konfutsiydan Amir Temurgacha davom etgan ustozga iqtido darajasidagi ehtirom bugungi kunda jiddiy sinovdan o‘tmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarni ochsak, deyarli tez-tez ustozning o‘quvchi yoki uning ota-onasi tomonidan kaltaklangani, haqoratlangani tasvirlangan videolar tarqalayotganining guvohi bo‘lamiz. Va albatta, teskarisi, pedagoglarning o‘quvchiga nisbatan qo‘pollik ko‘rsatgan holatlari ham uchraydi, bu haqiqatning boshqa bir og‘riqli tomoni. Ammo masala alohida voqealarda emas, balki ularning tez-tez takrorlanishi va eng muhimi, jamiyatning bunga munosabatida. Ilgari bunday voqea butun bir mahallani larzaga solar, yillar osha og‘izdan og‘izga o‘tib “sharmandalik” sifatida eslanardi. Bugun esa bir necha kunlik “trend”, muhokama mavzusi, so‘ng unutiladigan xabarlar oqimining bir bo‘lagiga aylanib qolmoqda. Aynan shu holat – voqeaning o‘zi emas, balki unga nisbatan jamiyatdagi “oddiylashib borayotgan” munosabat eng xavotirli alomatdir.

Nega shunday bo‘lmoqda? Bir necha sabab ko‘zga tashlanadi. Avvalo, zamonaviy ota-onaning farzandiga bo‘lgan tashvishi ko‘pincha “himoya qilish” bilan “aralashish”ni bir-biridan ajrata olmaslikka aylanib qolmoqda. Farzandini har qanday tanbehdan, hatto haqli tanqiddan ham “himoya qilish” ustozning tarbiyaviy vakolatini butunlay inkor etishga olib kelyapti. Ijtimoiy tarmoqlar ba’zan mas’uliyatsiz “tomoshabinlik madaniyati”ni kuchaytiryapti. Voqeaning ildiziga borib, uning oldini olish haqida o‘ylash o‘rniga, uni videoga olish, tarqatish, muhokama qilish ommalashyapti. Jamiyatda ustozlik kasbining ijtimoiy-moddiy obro‘si ham bu jarayonga ta’sir qilmasdan qolmaydi, kasbning nufuzi pasayganda, unga nisbatan hurmat ham beixtiyor pasayadi.

Raqamlashtirish jarayonining o‘zi ham bu munosabatga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Onlayn darsliklar, sun’iy intellekt asosidagi tyutorlar, Youtube saboqlari orqali bilim tobora “shaxssiz” tarzda uzatilyapti, o‘quvchi jonli inson bilan emas, ekran bilan muloqotda o‘sib boryapti. Bu esa shaxsiy namuna orqaligina beriluvchi hayot falsafasini asta-sekin siqib chiqarib, ta’limni sof axborot almashinuvi darajasiga tushirib qo‘yish xavfini kuchaytiradi.

Yana bir omil ta’lim tobora bozor xizmatiga aylanib borayotgani bilan bog‘liq. Xususiy repetitorlik, pullik maktab va kurslar kengaygani sari ba’zi ota-onalar va o‘quvchilarda “pulini to‘layapman, demak, xizmatdan norozi bo‘lishga haqqim bor” tarzidagi iste’molchilik mantig‘ini shakllantiryapti. Bunday munosabatda ustoz endi ma’naviy rahnamo emas, balki oddiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimga aylanadi.

Shu o‘rinda, bu muammoning jiddiyligi allaqachon davlat darajasida anglab yetilganini ta’kidlash joiz. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun aynan shu maqsadda o‘qituvchining huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, unda pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasi ostida ekani alohida belgilangan. So‘nggi yillarda bu qonun va tegishli kodekslarga kiritilayotgan qo‘shimcha tahrirlar ham masalaning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi. Endilikda bolaga nisbatan zo‘ravonlik qilgan pedagog javobgarlikka tortilishi bilan bir qatorda, o‘quvchi yoki ota-ona tomonidan o‘qituvchiga nisbatan qo‘pollik holatlariga ham huquqiy munosabat ko‘rsatilyapti. Ammo qonun, u qanchalik zarur bo‘lmasin, o‘zaro hurmatni qaytarib bera olmaydi. Haqiqiy hurmat huquqiy hujjat bilan emas, balki ko‘p asrlik tarbiya va an’ana, jamoatchilik fikri bilan shakllanadi.

Demak, agar ustoz shunchaki “o‘rgatuvchi” bo‘lmay, balki hayotda ham namuna bo‘la olsa, unda uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi maqomiga tajovuz qilish shunchaki bir insonni xafa qilish emas, balki butun bir jamiyat o‘zining kelajagi bilan bog‘liq eng nozik ipni – bilim va axloqning avloddan avlodga uzatilish rishtasini uzib qo‘yishi demakdir.

JADIDLAR JAVHARI

O‘zbekiston xalq artisti Gavhar ZOKIROVA bilan suhbat

Boshlanishi 1-sahifada.

Keyin afg‘on sayohatidan olib kelingan bir madrasaning surati bor edi. Hozir shu rasm bizning uyimizda. O‘sha davr uchun jadidlar yoki madrasa rasmini uyda saqlash hazilakam ish emasdi. Birinchi marta “Bu kim?” deb so‘raganimda, buvim: “Bobong bo‘ladi, o‘zbek tili va adabiyotidan dars bergan professor Abdulla Avloniy”, degan. Boshqa hech qanaqa ma’lumot aytilmagan.

1960-yildan keyin Begali Qosimov o‘sha hovliga kelib, birinchilar qatorida jadidlarni o‘rganishni Abdulla Avloniydan boshlagan ekan. Qosimov domlani ko‘rganman, o‘sha hovlida kitob va gazetalarni arab imlosidan kirillga ko‘chirib o‘tirardi. Har kuni kechgacha ishlardi. Chunki birorta ham qog‘ozni olib ketishga bermagan buvim. Uch yilgacha qatnagan. Buvim u kishini aziz mehmon bilib siylardi. Buyuk erkakning orqasida buyuk ayol turadi, degan gap bor. Buyuklarning ortida buyuk ayol qolishi ham kerak ekan. Abdulla Avloniy 1934-yilda olamdan o‘tgan bo‘lsa, keyingi 30-35 yilda uning nomini, merosini asrab-avaylash oson bo‘lgan, deysizmi? Begali Qosimovning “Abdulla Avloniy” kitobi o‘z-o‘zidan bino bo‘lmagan.

Bilasiz, o‘sha davrda kimning uyida Qodiriyning, Cho‘lponning kitobi chiqsa, o‘shani otib tashlashardi yo qamashardi. Abdulla Avloniyning asarlariga munosabat nisbatan iliqroq bo‘lgan. Nega? Chunki u kishi 1934-yilda tishini oldiradi va zaharlanib vafot etadi. Ya’ni, qatag‘on qilinmay qoladi. Agar bu voqea bo‘lmaganda ham, baribir, bir-ikki yil ichida omon qolmas edi. Bir yilgacha professor nafaqasini buvim olgan, lekin keyin to‘xtatib qo‘yishgan. Birin-ketin qizlarini ishdan olishgan. Ular olamdan o‘tgandan keyin ham oilalariga zulm yetkazilgan. Onam o‘zi bu haqda gapirib bergandi. Onam ikki yoshligida otasi chet elda o‘qigani uchun ta’qibga uchrab, Turkiyaga ketadi. Buvim va onam Abdulla Avloniyning hovlisiga keladi. Onam o‘n uch yoshgacha Abdulla Avloniyning qo‘lida tarbiya ko‘rgan.

Bobomizning o‘limiga doir yana bir qarash olimlar tomonidan ilgari surilyapti. 1934-yilda Abdulla Avloniyni o‘ldirishgan, degan gumon ham yo‘q emas. Ya’ni, u paytda ochiqchasiga qatag‘onlar hali bo‘lmagan. Katta nufuzga ega bo‘lgan olimga esa tish davolatish bahonasida qasd qilingan bo‘lishi mumkin. Shunaqa gumonlar bor. Buvim: “Xudo meni kechirsin, bobong vaqtida o‘tib ketdi. Safdoshlarining azoblarini ham, sovetlarning zo‘rliklarini ham ko‘rmadi. Yo‘qsa, o‘ziga qo‘shib butun oilasi qirib tashlanardi”, deb ko‘p aytardi. Hayot ekanda.



– Gavhar opa, Siz bilan suhbat teatr mavzusisiz bo‘lmaydi. Spektakllar haqidagi xotiralar, mulohazalar bilan bo‘lishsangiz.

– Bilasizmi, hayotda nimaki bo‘lsa, o‘sha baribir yaxshilikkadir. Masalan, Milliy teatrga Nurilla Abbosxon “O‘zbekcha raqs” asarini olib kelganda, menga juda ham kichkina rol berishgan – rus qizning onasini. Negadir ajnabiylarni o‘ynardim. Keyin-keyin o‘zbeklarni beradigan bo‘lishdi. Kumushni ham, Gulnorni ham, Jamilani ham, Gulbahorni ham o‘ynadim.

Menga Nurilla Abbosxonning qalami yoqdi, tili yoqdi. Pyesa yozish qonun-qoidalarini biladigan zo‘r dramaturg. Yoqub Ahmedov rahbarimiz edi, Nurilla Abbosxonga yangi pyesa yozdiramiz, dedi. Jamshid aka ikkalamiz telefon qildik, er-xotin. “Nurilla aka, shunaqa, bir er-xotin, uch dugona bo‘lsa, o‘sha uch dugona yigitning oldiga boradi-da, biri o‘sha yerda o‘zining baxtini topadi. O‘sha ikkalamiz bo‘laylik, Jamshid akam bilan men bo‘laylik”, dedik. “Bo‘ldi”, dedi. Teatrda ellik yildan oshiq ishlayotgan bo‘lsak, bunaqasini ko‘rmaganmiz. Ikki haftadan keyin telefon qilib, “Men birinchi kartinani yozdim”, dedi. “Yo‘g‘-e”, dedik. U bizga o‘qib beryapti. Jinni bo‘lib qoldik-da. Jiddiy komediya. Bitgach, Yoqub akaga berdik, ma’qulladi. Valijon Umarov rejissyorligida “Tanho yulduz” asari qo‘yildi. Shundan keyin Yoqub aka bosh rol so‘raganlarga yo rolidan norozilarga bizni misol keltiradigan bo‘ldi: “Yuribsiz hammangiz, rol bermayapti, deb. Oltmish aktyorga qanaqa qilib bosh rol olib beraman? Ha, qidiringlar, mana, qilyapti-ku er-xotin”, der edi.

Men “O‘zbekcha raqs”da Dilbar Ikromova bilan dublyor bo‘lganimda ham, baribir ikkinchi bo‘lardim. Lekin bu asarda Jamshid aka ikkalamiz tanho ijrochilar edik. Ko‘rdingizmi? Ba’zan bitta narsadan xafa bo‘lamiz-u, lekin siz shunga to‘g‘ri yondashsangiz, o‘zingiz uchun xulosa chiqarib, yaxshilikka yo‘ysangiz, sizni boshqa yo‘lga olib ketadi bu narsa. Hayotda bunday misollar juda ko‘p bo‘lgan. Shunda tushunganman, agarda nimadir bo‘lsa ham, hech tushkunlikka tushish kerak emas ekan.

– Siz san’at bo‘yicha o‘qigan, shu sohaga kirib kelgan vaqtda qizlarning sahnaga chiqishiga hamma ham rozilik beravermagan ekan. Siz bu bosqichdan qanday o‘tgansiz?

– To‘g‘ri. Bilganlar Avloniyning avlodi-da, deydi. Lekin yoshligimda katta bobomizning aktyor, rejissyor, dramaturg bo‘lganini bilmas edim. Bolaligimdan negadir shu kasb egasi bo‘lishni xohlaganman. Onam injener, otam harbiy.

San’atkorning toshi yengil, degan tushuncha bo‘lgan. Shuning uchun mening politexnika institutiga o‘qishga kirishimni istagan uydagilar, shunday ham bo‘lgan. Ammo bir yil zo‘rg‘a chidaganman. Keyin onamga yorilganman. Shuni bilardimki, faqat aktyorlikni xohlayapman. Puli uchun yo mashhur bo‘lish uchun emas, negadir xohlayapman. Onam uch kun yig‘lab-yig‘lab, oxiri ko‘ndi. O‘zim tayyorlanib, o‘zim kirganman Teatr va rassomlik san’ati institutiga. Hech kim orqamdan yurmagan. Uchrashuvlarda so‘rashsa, hazillashib aytaman: “Onam, Ilohim, bolam, institutga kirmagin, Allohu akbar”, deb jo‘natgan. Otang bilmasin, ikkalamizni uydan haydab yuboradi, degan. Dadamga to‘rtinchi kursgacha ham “Gavhar pedinstitutda o‘qiyapti”, deyishgan.

To‘rtinchi kursda Botir Zokirov sovchilikka kelgan. “Gavhar aktrisa bo‘ladi”, desa, “Yo‘q, mening qizim o‘qituvchi bo‘ladi. Siz bilmas ekansiz, Botirjon”, degan dadam. “Yo‘q, Akmal aka, siz bilmas ekansiz. Sizning qizingiz mening ukamga tegadi”, desa, “Yo‘g‘-e, ukangiz bormi, Botirjon?” degan. Tasavvur qiling, o‘sha paytda butun dunyoga mashhur odam 1971-yilda kirib kelsa hovlimizga. Men ham bilmaganman, menga ham aytmagan Jamshid akam.

– Gavhar opa, maktabda rus tilida o‘qib, milliyligimizni va ona tilimizni yuksak darajada saqlab qolgan ziyolilardansiz…

– Biz haqiqatan rus maktabda o‘qiganmiz. Sovet davrida rus tilini bilmasa, hech kim o‘smasdi ham. Bu siyosat bo‘lgan. Katta bo‘lganimda maktabdagi tabelimni ko‘rdim. Bilasizmi, nima jumla bor edi u yerda? “O‘zbek tilidagi baho sinfdan sinfga o‘tishga xalaqit bermaydi”, ya’ni, “оценка по узбекскому языку не влияет на переход из класса в класс”. Demak, sen ona tilingni bilishing shart emas, bilmasang ham sinfdan sinfga o‘taverasan, degani bu. Lekin o‘zbek tiliga tabiiy muhabbat bo‘lgan. Bu oilaga, atrof-muhitga bog‘liq. Ota-ona bolasiga mehr bersa, to‘g‘ri yo‘naltirsa, bola o‘nta tilni bilsa ham ona tilidan voz kechmaydi.

– Ayol kishi oilaning fidoyisi bo‘lishi kerak, degan tushuncha bor. Ayting-chi, ayol kishi hamma narsani, oilani, ijodni, baxtni ham birdek mukammal ushlab tura olishi mumkinmi? Yoki baribir nimaningdir evaziga nimadandir voz kechiladimi?


– Jadidlarni o‘qiganimda hayron qolganim shu bo‘ldiki, ularning onalari o‘qimishli bo‘lgan. Ular o‘z-o‘zidan jadid bo‘lgan emas.

Men o‘z taqdirimni Xudoning marhamati deb bilaman. Jamshid akam insonni tushunar edi. Masalan, ikkalamiz ishdan barobar kelsak, u kishi o‘tirib olib, ovqat tayyorla, demasdi. “Sen ham ishdan kelyapsan, men ham, birga qilamiz”, derdi. Bilasizmi, hayotda ikkita yaxshi odamning birlashishi qiyin. Men yaxshi emas edim oilada. Hamma ayollarga o‘xshagan tez edim, birpasda jahlim chiqardi. Jamshid akam kulib vaziyatdan chiqib ketardi.

Bir rivoyatda uch qiz bo‘ladi. Birining muomalasi qo‘pol, ikkinchisi dangasa, uchinchisi risoladagidek. Qizlar voyaga yetgach, oynada qarashsa, aravada bir kampir kelayotganmish. Yuringlar, qizlar, sizlarni erga beraman, debdi. Uchalasini aravaga o‘tqazibdi-yu, olib ketibdi. Bir qishloqda muomalasi chiroyli yigit bor ekan, hamma undan maslahat olar ekan. Kampir qo‘rs, qo‘pol qizga, bu sening ering, debdi. Ikkinchi qishloqda bir yigit dalada shunaqa ishlayotgan ekanki, go‘yo yerdan olov chiqayotganday emish. Dangasa qizga bu sening ering, debdi kampir. Uchinchi qishloqqa borishganida, qishloqning chetidagi buzilgan, xaroba uyda devday bo‘lib bir mast yigit yotgan ekan. Kampir risoladagidek qizga bu sening ering, debdi. Qiz: “Nega, menga munosibmi shu er, opalarimga qanaqa er topdingiz. Men hamma yoqni gullatadigan qiz bo‘lsam, qo‘limdan ish keladi, menga shuni ravo ko‘rdingizmi?” deb so‘rasa, kampir: “Qizim, aslida, sen eng zo‘r yigitga munosibsan, lekin sen bunga tegmasang, u o‘ladi”, degan ekan. Xalqimiz ta’biri bilan aytganda, bir yaxshiga bir yomon har joyda bor. Oilada ham shu.

– Samimiy suhbatingiz uchun tashakkur!

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.



Siz birinchi navbatda aniq bilishingiz kerak bo‘lgan narsa – kutubxona qayerda joylashgani.

Albert EYNSHTEYN

MEROS



TOSHGA MUHRLANGAN TARIX

Jahon sivilizatsiyasi tarixida har bir buyuk madaniyat o‘zining siyosiy, falsafiy va madaniy mustaqilligini muayyan fundamental matnlar orqali insoniyat xotirasiga muhrlagan. Qadimgi Mesopotamiya uchun “Hammurapi qonunlari”, Misr ehromlaridagi “Iyeroglifik matnlar” qanchalik ulug‘vor poydevor bo‘lsa, Markaziy Osiyo geosiyosiy makonida gurkiragan turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek ulusi uchun O‘rxun obidalari ayni shunday umumsivilizatsion qimmatga egadir.

Qudratulla OMONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Ana shunday buyuk yodgorliklardan biri milodiy 759-yili Ikkinchi Turk xoqonligi va Uyg‘ur xoqonligi davrining o‘tish bosqichiga oid deb qaraluvchi Mo‘yunchur bitiktoshidir. Ushbu qutlug‘ toshning 21 satridagi birgina jumla bugun bizning milliy g‘ururimizni osmon qadar yuksaltirib, tariximizning yangi qirralarini ochadi: “Biŋ yïllïq, tuman künlik bitigimin, belgümün anta yasï tašqa yaratïtdïm (Ming yillik, tuman [o‘n ming] kunlik bitigimni, belgimni o‘sha yerda yassi toshga yozdirdim)”.

Uzoq yillar davomida ushbu yodgorlik faqatgina harbiy yurishlar va siyosiy voqealar xronikasi sifatida o‘rganib kelindi. Vaholanki, mazkur satrda aks etgan konseptual qarash shunchaki hukmdorning maqtov bayoni emas, balki turkiy dunyoning aqliy yuksalishini, qonunchilik an’anasining zaminini tasdiqlovchi eng muhim madaniy-huquqiy hujjatdir. Mazkur ulug‘vor qaydlar ortida elimiz davlatchiligi va madaniyatining mustahkam asoslari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Matnda biŋ yïllïq (ming yillik) birligining dadil qo‘llanishi o‘sha davr jamiyatida yozuv madaniyatining paydo bo‘lganiga VIII asrgacha ham kamida ming yil to‘lganligi haqidagi tarixiy xotirani tasdiqlaydi. Bu esa turkiy qavmlar toshlarni tilga kiritishdan avval ham juda uzoq va tizimli yozuv yaratuvchilik yo‘lini bosib o‘tganining dalillangan isbotidir. Bizning yozuvimiz toshga tasodifan o‘yilgan belgilar emas, balki asrlar sinovidan o‘tib, sayqal topgan teran madaniy tafakkur mevasidir.

Bitiktoshlarga ulug‘vor matnlarni siyosiy mafkura darajasida o‘yib yozish uchun jamiyatda yuksak savodxonlik va mukammal ta’lim tizimi mavjud bo‘lishi shart edi. Oddiy jamiyat yoki savodsiz ulus bu qadar yuksak aniqlik va teran mushohada bilan fikrlay olmas edi. Qadimgi bitikchilar shunchaki oddiy kotiblar emas, balki davlatning mafkuraviy dasturini tuzuvchi yuksak aqliy salohiyat egalari – bilim kishilari bo‘lgan. Ularning merosi butun boshli xoqonlik yuksak savodxonlik muhitida yashaganidan dalolat beradi. Ulkan geosiyosiy makonda yashagan turli qavm va urug‘larning bu bitiklarni birdek o‘qib, birdek tushunishi zamirida markazlashgan yagona adabiy til – turkiy standart til ustuvor bo‘lgani yotadi. Bu vaqt sinovidan o‘tgan, sayqallashgan, imlo va adabiy me’yorlari qat’iy shakllangan davlat tilining kuchi edi. Tilimiz bundan 1300 yil avval ham ulkan imperiya hududida yashovchi xalqlarni birlashtira olgan tugal muloqot vositasi bo‘lgan.

Hayratlanarlisi, bitta jumla tarkibida kelgan bitig va belgü so‘zlari shunchaki lug‘aviy birlik emas, balki yaqqol huquqiy tushunchalardir. Qadimgi turkiy tilda biti fe’lidan yasalgan bitig so‘zi ilk ma’noda matn yoki kitobni anglatgan. Turk xoqonligi davriga kelib u oddiy kitob maqomidan davlatning huquqiy asosi, xoqonlikning qonunlari, hujjat anglami darajasiga ko‘tarilgan. Bitik huquqiy kuchga, ya’ni davlat nizomiga aylangan. Bu o‘sish belgü (belgi, nishon, tamg‘a) so‘zining qurshovida yanada qat’iylashadi. Ularning juftlikda, bir qurshovda bitigimin-belgümün kelishi siyosiy-huquqiy tus olib, toshga yozilgan matn shunchaki xotira emas, balki xoqonlik hokimiyatining qutlug‘ va o‘zgarmas ramzi – qonun ustuvorligi ekanini anglatadi. Xoqon o‘z davlatini faqat qurol kuchi bilan emas, balki toshga tamg‘alangan hujjat bilan boshqargan. Matnni jamiyatga yetkazuvchi axborot tashuvchisi sifatida yasï taš belgilangan. Bu esa o‘z davrining eng mukammal, o‘zgarmas va manguga muhrlangan o‘chmas arxiv tizimi edi.

O‘z vaqtida ayrim rus turkshunoslari “ming yil va tuman kun” qolip birligini turkiy xalqlar qo‘shni ellardan o‘zlashtirgan, degan fikrni ilgari surgan edi. Biroq manbalarning chuqur tahlili ushbu qolip ifoda sof turkiy tafakkur mahsuli ekanini ko‘rsatadi. VIII asrdayoq xoqonlar davlat nizomini biŋ yïllïq, tuman künlik deya toshga o‘ydirgan edi. Bu ibora vaqt o‘lchovi birligi o‘laroq, davlatchilik ildizlari va qonunlarining mangu va barqarorligi ishorasi, ya’ni siyosiy metaforasi bo‘lgan.

Bu siyosiy-huquqiy formulyar vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib ketmadi. Aksincha, u rasmiy-huquqiy uslubga kengroq o‘rnashib, keyingi XIII-XIV yuzyilliklardagi notarial bitimlarning ham bosh formulyariga aylandi. Xizmatkorlar, yer yoki bog‘, uzumzorlarning oldi-sotdisiga oid vasiqalarda mulkdorning umrbod va mutlaq egalik huquqi aynan shu qolip bilan kafolatlandi. Hujjatlarda “mıŋ yïl tümän küngä tägi Qutluğ Temür erklig bolsun” (ming yil tuman kunga qadar Qutlug‘ Temur ega bo‘lsin) ko‘rinishidagi huquqiy qolipli ifoda shakllari keng tarqalganini bizga qadar yetib kelgan yuzlab hujjatlar misolida ko‘rish mumkin. VIII asrda davlat boshqaruvi va mafkurasi darajasida qo‘llangan “ming yil tuman kun” ifoda qolipi keyingi asrlarda turkiy rasmiy uslubning huquqiy poydevoriga aylanib, fuqarolik hujjatlarida mulkchilik va egalik huquqini kafolatlovchi qat’iy me’yor vazifasini bajargan.

Mo‘yunchur bitiktoshidagi ushbu satrlar turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek xalqi jahon madaniyati maydoniga kecha yoki bugun chiqmagani, balki o‘z yozuvi, kitobat an’anasi, qonunchiligi va yuksak madaniyati bilan insoniyat sivilizatsiyasiga ming yillar davomida poydevor qo‘yib kelganini anglatuvchi bosh dalildir. VIII asrda toshga o‘ydirilgan va asrlar osha yashab qolgan ushbu ulug‘vor ifoda ajdodlarimizning huquqiy tafakkuri naqadar yuksak bo‘lganini isbotlaydi. Bitiktoshdagi satrlar turkiy qavmlarning jahon madaniyati sahnasidagi munosib mavqeyini hujjatlashtirgan eng yuqori sivilizatsion meros sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman, ajdodlarimiz bu o‘chmas jumla orqali o‘z yozuvi va madaniy merosini asrlar emas, mingyilliklar osha yaratganini anglatgan holda, uni kelajak avlodlarga omonat qoldirganidan dalolat beradi.

OYDINLAR

ILM VA EL XIZMATIDA

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Respublikasi Fan arbobi, Xalqaro oliy ta’lim akademiyasi akademigi, Belorussiya Milliy fanlar akademiyasining Mexanika va polimer tizimlar instituti Faxriy fan doktori, texnika fanlari doktori, professor Negmatov Soyibjon Sodiqovich 1941-yil 16-aprelda Andijon shahrida ziyolilar oilasida tavallud topdi.

Butun hayoti ilm-fan bilan chambarchas bog‘liq kechgan yirik olim mamlakatimizda kompozitsion materiallar, mexanokimyo va polimer kompozitlar sohasida mustaqil ilmiy maktab yarata olgan kam sonli mutafakkir ustozlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning faoliyati va xos maktabi xalqaro ilmiy doiralarda ham tan olingan.

Tolibi fununning ilmiy jihatdan shakllanishida, albatta, o‘sha davrning yirik olimlari va muhiti katta ahamiyat kasb etdi. Doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlagan yillar Negmatov hayotida alohida bosqich bo‘ldi. Moskvadagi SSSR Fanlar akademiyasi qoshida akademik Semyonov nomidagi Kimyoviy fizika institutida akademik N.S.Yenikolopov ilmiy rahbarligi va B.A.Shipilevskiy, S.S.Berlin, V.A.Beliy kabi mashhur olimlar bilan uzviy hamkorlikda olib borilgan izlanishlar ortida zahmatli mehnat, o‘ziga o‘ta talabchanlik turardi. Olimlik faoliyati va ilmiy fikrlash uslubi shakllanishida akademiklar M.Urazbayev, X.Usmonov, M.Asqarovlarning ta’siri benihoya kuchli bo‘lgan.

Uning ilmiy faoliyatida nazariya va amaliyot doimo uyg‘un bo‘lib kelgan. Ilmni hayotdan ajratmagan olim nazarida har bir g‘oya amalda ishlashi, mamlakat iqtisodiyoti va sanoatiga foyda keltirishi lozim edi. Shu sabab, uning rahbarligida yaratilgan texnologiyalar tog‘-kon metallurgiyasi, neft-gaz, mashinasozlik, qurilish va kimyo sanoatida keng qo‘llanilyapti.



Ayniqsa, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida joriy qilingan mis ishlab chiqarishning chiqindisiz texnologiyasi kombinatga yiliga qo‘shimcha 792,58 t mis, 43,39 kg oltin va 10,915 t kumush ishlab chiqarish hisobiga 20,1 mln AQSH dollari miqdorida iqtisodiy samara bermoqda.

Shu bilan birga, akademik S.S.Negmatov va uning shogirdlari ma’danlardan metallarni flotatsiya qilib ajratib olish uchun mahalliy xomashyolardan yangi, arzon kimyoviy vosita (flotoreagent) yaratishdi. Bu mahsulot chet eldan olib kelinadigan qimmatbaho “T-92” vositasining o‘rnini bosa oladi va undan 1,5–2 baravar arzonroqqa tushadi. Yangi vositani ishlab chiqarish uchun Toshkentda yiliga 2500–3000 tonna mahsulot tayyorlaydigan kichik zavod ishga tushirildi va mahsulot “Olmaliq KMK” kombinatidagi sinovlardan juda yaxshi o‘tdi. Neft-gaz sanoatida import o‘rnini bosuvchi reagentlar, kompozitsion materiallar va yangi texnologik yechimlar yaratilishi S.Negmatov rahbarligidagi ilmiy jamoaning yirik yutuqlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Haqiqiy olim ilmiy natija qoldirish barobarida, fikrlay oladigan, izlanuvchan va tadqiqotni davom ettiradigan kuchli avlodni ham tarbiyalaydi.

Soyibjon Negmatov faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri ham u yaratgan ilmiy maktabdir. Uning rahbarligida yigirma yetti nafar fan doktori va qariyb to‘qson nafar fan nomzodi tayyorlangan. Biroq bu yerda gap faqat raqamlarda emas. Eng muhimi, u yaratgan ilmiy maktabning natijadorligi va barqarorligidadir.

Akademik Negmatov yigirma sakkizta monografiya, sakkiz yuzdan ortiq ilmiy maqola, saksondan ziyod ixtiro va patentlarning muallifi hisoblanadi. Uning ilmiy ishlari dunyoning turli mamlakatlaridagi xalqaro kongress, simpozium va konferensiyalarda taqdim etilgan.

Bugungi kunda ham ilmiy faoliyatini to‘xtatmagan, hamisha izlanishda bo‘lgan akademik S.Negmatov o‘zi asos solgan “Fan va taraqqiyot” davlat muassasasiga 1990-yillardan buyon rahbarlik qilib kelyapti. Prezidentimizning ilm-fanni rivojlantirish, yurtimizni ilg‘or mamlakatlar qatoriga qo‘shishga qaratilgan Farmon va Qarorlari ijrosini ta’minlash borasida ilm-fan taraqqiyoti, yosh kadrlar tarbiyasi va yangi ilmiy yo‘nalishlar haqida o‘ylashdan to‘xtamagan ustozimiz ham yurt ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelyapti.

Ilm ahli, shogirdlar va oila ardog‘idagi zabardast olim-murabbiy, bag‘rikeng va oliyjanob inson, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Soyibjon Sodiqovich Negmatovning butun faoliyati tom ma’nodagi fidoyilikning yorqin namunasidir.

Baxtiyor OMONOV,
siyosiy fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

TAQDIMOT



STOKHOLMDA NIMA GAPLAR?

An’anaviy Nobel haftaligi doirasida tibbiyot, fizika, kimyo hamda adabiyot sohalari bo‘yicha bu yilgi xalqaro mukofot egalari rasman ma’lum qilindi.

Adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga kanadalik shoira va essenavis Enn Karson loyiq ko‘rildi. Shvetsiya akademiyasi uni she’riyat va nasr chegaralarini buzgan eksperimental uslubi hamda mumtoz an’analarni zamonaviylik bilan mahorat ila uyg‘unlashtirgani uchun taqdirladi.

Fiziologiya va tibbiyot sohasidagi sovrin miya tizimini o‘rganishda misli ko‘rilmagan burilish yasagan uch nafar olim – Karl Daysserot (AQSH), Peter Xegemann (Germaniya) va Georg Nagelga (Germaniya) berildi. Ular neyronlarni oddiy yorug‘lik yordamida “yoqib-o‘chirish” imkonini beruvchi optogenetika usulini kashf etishdi. Ushbu texnologiya kelajakda depressiya, ko‘rlik va Parkinson kabi og‘ir asab kasalliklarini butunlay davolashga xizmat qiladi.

Fizika bo‘yicha sovrindor sifatida asli belgiliyalik olim Frensis Xalzen tan olindi. U koinotning eng sirli, hech qanday to‘siqsiz devorlardan ham o‘tib ketuvchi “arvoh zarrachalari” – yuqori energetik neytrinolarni tutish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun mukofotlandi.

Kimyo bo‘yicha Nobel mukofoti Anri Kagan (Fransiya) va Kenso Soaiga (Yaponiya) topshirildi. Olimlar kimyoviy reaksiyalarda nojo‘ya ta’sirsiz, faqat shifobaxsh molekulalarni o‘z-o‘zidan ko‘paytirish sirini ochishdi. Bu kashfiyot farmakologiyada mutlaqo xavfsiz dorilar yaratish imkonini beradi.

TAHRIRIYATDAN: *Nobel qo‘mitasi an’anasiga ko‘ra, Tinchlik va Iqtisodiyot yo‘nalishlari bo‘yicha bu yilgi g‘oliblar nomi yaqin kunlarda e’lon qilinadi. Laureatlarga oltin medallar va 12 million shved kronasi (taxminan 14 milliard 150 million so‘m) miqdoridagi pul mukofotlari topshiriladi.*

“YEVROPAGA SAYOHAT” TAASSUROTLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Kitobda Mirzaali Akbarovning tarjimayi holiga tegishli ma’lumotlar, nemis tilga qiziqishi, maktabdagi muallimlari, oliy ta’lim borasida qiziqarli sahifalar bor. O‘qishni bitirib Toshkentdan qishlog‘iga qaytgan Mirzaali aka jamlagan bir arava kitobini pochta orqali jo‘natgan ekan. U kishi garchand ixtisosligi nemis tili muallimi bo‘lsa ham, ona tilining barcha qirralarini puxta biladi. Bunday tarjimonlar ikki qirrali keskir xanjarga o‘xshaydi. Kitobda muallifning o‘zi qayta-qayta ta’kidlab e’tirof qilganidek, “avvalo, ona tili va milliy adabiyotimizni” chuqur o‘rganish lozim. Chet tillarini o‘rgangan niyati xolis inson uchun vaqti kelib imkoniyatlar eshigi dunyoning qaysi bir mamlakatiga tomon ochiladi. Germaniya, Avstriya, Shveytsariya mamlakatlaridagi tarjimonlarning ijod uylariga borib, ijodiy ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan Mirzaali Akbarovning ayni haqiqatga iqrori shunday.

Bu inson qishlog‘idagi o‘n to‘qqiz yillik ish faoliyatidan keyin Toshkentga qaytadi. Radioda ishlaydi, gazeta-jurnallarda muxbirlik qiladi. Ammo sevimli mashg‘uloti – tarjimonlik xayolidan ketmaydi. Ko‘ngil royishiga mos ravishda Herman Hessening murakkab matnli “Cho‘l bo‘risi” romanini ikki yil davomida qunt bilan tarjima qiladi. Roman o‘zbek kitobxonlari uchun ulkan sovg‘a bo‘ladi. Bu haqda jiddiy adabiy taqrizlar yoziladi. Tarjimon mehnati e’tirof etiladi. Saodatli kunlarning birida Germaniyaga yo‘l olgan hamkasb tanishi – Abdulazizdan o‘zbek tilida nashr bo‘lgan “Cho‘l bo‘risi”dan bir-ikki nusxani “Yevropa tarjimonlar kollegiyasi”ga jo‘natib yuboradi. Shundan keyin yoshi qirqdan oshib ellikka yaqinlashib qolgan Mirzaali Akbarov uchun Yevropa eshiklari ochiladi. Yigirma yil davomida uch mamlakatdagi tarjimonlar ijod uylariga har yili borib, ijodiy ish – tarjima bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Men Gyote hikmatlarini, Herman Hessening hikoya va qissalarini Mirzaali aka tarjimasida maroq bilan o‘qiganman. Taassurotlarimni aytish imkoni ham topildi. M.Akbarov xarakterli odam. Hamma bilan ham til topishib, ko‘nglini ochavermaydi. “Moziydan sado” jurnalida bir-ikki oy ishlagan mahali tarjimalari, xususan, so‘z tanlashi, pishiq-puxta jumlalar tuzishi – mahorati haqida gaplashdim. Ora-chira tarjimon suyadigan nemis tilida bir-ikki gap aytdim. Hamsuhbatga aylandik. Birga gurunglashib tushlik qiladigan bo‘ldik. Men u mahallar “Moziydan sado”da o‘rindoshlik asosida ishlar edim. Biroq “Navoiy-30”dagi bu gurunglar ko‘pga cho‘zilmadi. Bir kuni jurnal tahririyatiga borsam, Mirzaali aka ishga kirganiga hali hech qancha bo‘lmasdan “ketaman”ga tushib qolibdi. Sababi bunday: bo‘lim telefoni jiringlagan ekan, xonada boshqa hech kim bo‘lmagani uchun go‘shakni Mirzaali aka olibdi. “Alo” desa, narigi tomondan salom yo‘q, alik yo‘q, biroz do‘qlangan ovozda: “Kimsan!” degan sensirab bir sas kelibdi. Mirzaali aka ichki telefondan bosh muharrir xodimlarini izlayotganini qayerdan ham bilsin?! Muomalasiga mos ravishda “O‘zing kimsan?!” debdi do‘q aralash u ham sensirab. Bosh muharrir o‘rinbosarini huzuriga chorlab, “Kimni ishga olib keldinglar?” deya savol beribdi. Bundan xabar topgan Mirzaali aka qo‘lidagi plastik pulqopiga qarab: “Shuni sarson bo‘lib ochtirmasam bo‘larkan, baribir ketaman”, dedi qat’iy.

To‘g‘ri so‘z, haqiqatgo‘y, gapi ustidan chiqadigan Mirzaali aka bunday masalalarda hazillashmaydi. Bo‘shadi, ketib qoldi. Keyin telefonlashib, gurunglashib turadigan bo‘ldik. Yan Parandovskiyning “So‘z kimyosi” kitobining bir qismini olim-tarjimon Ozod Sharafiddinov o‘zbek tiliga o‘girgan edi. Shuni oxiriga yetkazishni niyat qilgan Mirzaali aka, kitobni izlab yurgan ekan. Menda bor. Aytdim. Ko‘zlari chaqnab, xursand bo‘lib ketdi. Kitobni berdim. Y.Parandovskiyning shu ajoyib asari ikkita tarjimonning mehnatlari evaziga tugal holda o‘zbek tilida kitob bo‘lib chiqdi.

Mirzaali aka bilan maroqli gurunglarimiz uchun avval shunday kitoblar sabab bo‘ldi. Ikkinchidan, Germaniyaga safarlarga borganim va taassurotlarimni so‘zlaganimdan gapimiz olishdi. “Yevropaga sayohat” mutolaasi jarayonida men tanigan muallifning tabiati, nazari, ko‘rgan-kechirganlariga bahosi, muomala-munosabatda mezbon tomonning urf-odatlari, ko‘ngliga qarashlari – barcha-barchasi o‘z ifodasini topgan, deb o‘yladim. Mirzaali aka ijodiy safarlar jarayonida nemis do‘stlar orttiradi, mehmondorchiliklarda bo‘ladi. Tarixiy obidalarni tomosha qiladi. Bularning ko‘pchiligini ibrat uchun yozadi. Sinovlarga duch kelgan pallalari ham bor. Deylik, boyvachcha nemis er-xotin suhbat asnosida Mirzaali akaning qo‘liga nemis tilidagi gazetani tutqazib, stol ustida bitta jomadonni qoldirib, o‘zlari go‘yo zarur yumush bilan tashqari chiqishadi. Besh-o‘n daqiqa o‘tib-o‘tmay qaytib kelishadi. Mirzaali aka hamon gazeta bilan andarmon. Ular kela solib qulflanmagan diplomatni ochib ko‘rishadi. Ichi to‘la dasta-dasta dollar. Er-xotin pullarni qay holda belgilari bilan qoldirgan bo‘lsa, shu holicha turibdi. Sinovning bunday usullari ham bor ekan.

“Yevropaga sayohat” kitobida nemislarga xos to‘g‘rilik, tejamkorlik, rejadorlik, va’dagi vafo, intizom, aniqlik kabi o‘ndan ortiq fazilatlar sanaladi. Nazarimda, bunday fazilatlar muallifning o‘ziga ham begona emas. Zotan, kim yer yuzidagi qaysi xalq-millat urf-odatini, madaniyati, adabiyoti va san’atini o‘rganadigan bo‘lsa, ulardan saboq oladi va o‘z ruhiyatiga singdiradi ham. Mirzaali aka o‘z e’tirofiga ko‘ra, biror joyga kech qolib borishni juda yomon ko‘radi. Muallifning hayotiy tutumlarida bunday aniqlikdan tashqari, ishonch, reja, to‘g‘ri bo‘lish, haqgo‘ylik kabi ko‘plab mezonlar bor. Xolislik yuzasidan muallif olmonlarga xos qator go‘zal fazilatlarni yozish barobarida, o‘ndan ortiq illatni ham sanaydi. Muhtaram gazetxon, agar bu “illat”lar qiziq bo‘lsa, kitobdan o‘qib olasiz.


“Yevropaga sayohat”ning muhim jihati unda muallifning o‘z qarashlari, ko‘z qarashlari, nuqtayi nazarlari bor. Barcha sayohat kitoblari kabi bunda ham taqqoslar kuzatiladi. Nemislarning biror ibratga munosib ishlarini so‘zlab kelgandan keyin “bizda-chi...” degan savol qo‘yiladi uch nuqta bilan. O‘quvchi yozilmagan bo‘lsa ham, holatni so‘zsiz anglaydi.

Maxsus bo‘limlarga ajratilgan kitobdagi barcha taassurotlarni o‘qish zavqli. Men uchun “Gyote va Shillerni yo‘qlab” bo‘limi yana ham qiziqroq tuyuldi. Chunki talaba paytim men ham bu ikki alloma adibning shahri – Vaymarga borgan edim. Ayniqsa, “Ertalab Gyote yashagan uyda bo‘ldim”, degan gapini o‘qib, 1989-yil avgustida men ham shu ikki qavatli uy-muzeyga borganimni esladim. Muzeydan bir necha chaqirim narida Gyotening dala hovlisi ham bor. U ham muzey. Dala hovlidagi xonalardan biri devoriga “Faust”ning qo‘lyozmalari, adibning o‘z qo‘li bilan o‘chirib-yozganlaridan namunalar ilib qo‘yilgan edi. Ayni manzara hamon ko‘z oldimda turibdi.

Kitobxonlik, olmonlar hayotidan ayrim lavhalar, shu bilan birga, “shaharlar ta’rifi” ham menga qiziqarli va haqqoniy bo‘lib ko‘rindi: “Mundoq olganda, shaharlar ham xuddi odamlarga o‘xshaydi. Masalan, Nyu-York – iltifotsiz va ishbilarmon, Parij – xiyol bemulohaza va oliftasatang, Berlin – qovog‘i soliq, xo‘mraygan, Hamburg – qo‘pol va qo‘rs, Myunxen – tor va sershovqin, Qo‘qon – chiroyli gaplariga uchmay, cho‘ntakka hushyor bo‘lasiz, Namangan – tili shirin va gullar shaydosi, Toshkent – dollaringiz bo‘lsa, doim izzat-hurmatdasiz, Vaymar – adabiyot va san’at homiysi, Shtralen – gullar va tarjimaga ishqivoz, Drezden – dilbar va san’atsevar, Kotbus – huvillagan, bo‘m-bo‘sh, Laypsig – kitobsevar va ilmli, Vena – madaniyat va san’at markazi, Frankfurt-Mayn – puldor va salobatli va hokazo”. Ma’zur tuting, ko‘chirma andak cho‘zildi. Ammo shaharlarning bunday ta’rifini boshqa kitoblarda o‘qimaganim va shaharlarning odamlarga xos qiyofasini uchratmaganim uchun kitobning 153-betidan shu kattaroq ko‘chirmani oldim. Zero, bu subyektiv ta’rif siz uchun ham qiziq tuyulsa kerak...

Mirzaali Akbarov Germaniyadagi xalqaro Herman Hesse jamiyatining O‘zbekistondagi yagona a’zosidir. Tarjimon xususida nemislar matbuotida qator maqolalar, bir qancha suhbatlar nashr bo‘ldi. Jamlansa, bitta kitob bo‘lar, ehtimol. Ammo Mirzaali aka maqtanmaydi. Bir pulga arzimas tadbirda topshirilgan yorliq yoki xalqaro sertifikatni boshi uzra ko‘tarib rasmga tushganlar, ayniqsa, turli o‘zanlar bo‘ylab o‘z rasmlarini targ‘ib qilguvchi kashandalar kamtarlikni ham Mirzaali akadan o‘rgansa bo‘lar edi.

Mirzaali Akbarov bu sayohatnoma kitobida o‘z ish uslubi, tarjimonlik faoliyatidagi tajribalardan, gohida adashuvlaridan ham so‘zlaydi. Misollar keltiradi. Deylik, “gottoshe” hamda “byurger” so‘zlarining xatoligi va o‘nglanishidan bahs yuritadi. Xorij tilini bilish muhim. Ammo ona tilimiz tarovatini, ifoda imkoniyatlarini, adabiyotimiz tarixi va bugungi adabiyotimizni tarjimon juda yaxshi bilishi kerakligiga ko‘p bora urg‘u beradi. Yozadi: “Umuman, tarjimada tilni bilishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Tarjimondan chuqur bilim, yuksak mahorat,



ta’bir joiz bo‘lsa, zargar mahorati talab etiladi. U jahon tillarini yaxshi bilishi, shuningdek, dunyodagi boshqa tillardan, avvalo, ona tili, adabiyot, tarix, san’at, qo‘yingki, dunyoviy va diniy ilmlardan ham yaxshi xabardor bo‘lmog‘i lozim. Tarjima – biror asarning boshqa bir tildagi so‘zma-so‘z bayoni emas, bil’aks, unda mutarjim asliyat ruhini saqlay olishi, eng avvalo, uni o‘zi teran his etib, o‘quvchiga yetkazishi, unga “yuqtira” olishi kerak. Tasavvur qiling, agar yozuvchi o‘z asarini yozayotganda yig‘lamagan bo‘lsa, uni o‘qiyotgan kitobxonning ko‘zlariga nam qayoqdan kelsin! Tarjimon xususida ham xuddi shunday fikrni bildirish mumkin. Mutarjim asar tarjimasi jarayonida dastavval o‘zi to‘lqinlanmog‘i lozim”.

Mirzaali Akabarovning o‘z ijodiy tajribasidan o‘tgan bunday ibratli fikrlar, hikmatli gaplar bugun tarjima bilan shug‘ullanayotgan, ko‘p hollarda sun’iy zako, gugul-transleytdan foydalanib, o‘zlaridan mohir tarjimon yasash yo‘liga kirgan ayrim yosh mutarjimlar uchun juda muhim. Yoshlar aynan sabr-bardoshda, haqqoniyat, qat’iyat va eng asosiysi, ijodiy mehnat-mashaqqatdan zavqlanishda Yevropaning nemis tilli mamlakatlarida mohir tarjimon sifatida tanilgan Mirzaali Akbarovdan hayotiy-ijodiy ta’lim olishlari kerak, albatta. Muallifga ham, o‘quvchilarga ham “Yevropaga sayohat” kitobining nashri qutlug‘ bo‘lsin!

Bahodir KARIM,
professor

ILDIRGI: *Kitobning nashr adadiga qaradim: 50 dona ekan. Kam. Juda kam. Bunday kitoblar ko‘p ming nusxada bosilib chiqsa, Yevropani ichdan tanib olishimiz uchun bizga zarur ma’rifiy qo‘llanma bo‘ladi, deb o‘yladim.*

SHOIR VA TEATR



Shuhrat RIZAYEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi

Boshlanishi 1-sahifada.

“Toshkent darbozalari” hujjatli filmi, Ahmad Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligiga bag‘ishlangan bayram ssenariysi, “Oltin devor” badiiy filmi ssenariysidagi ishtiroki, umuman, oltmish yillik ijodining qay bir davrlarida u yoki bu munosabat bilan kino, bayram maydon tomoshalariga ssenariy muallifi sifatida bosh qo‘shganlarini hisobga olsak, katta ijodiy tarjimayi holning bir chekkasiga bezak bo‘larli bitiklar anchagina chiqadi. Ammo bularning barini bir tomon surib, Erkin Vohidov va teatr mavzusida o‘sha uzun-u fuzun ijodiy yo‘lga nigoh tashlar ekanmiz, ustozning bu yo‘nalishda uncha-muncha dramaturgman deya ko‘ksiga urgan mardumdan ancha baland va shoyon e’tiborli ijodiy mahsullar bergani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Biz, muxlislar uchun Erkin Vohidovning teatrga bog‘lanadigan tomonlari haqida gap ketsa, albatta, eng avvalo, “Oltin devor” komediyasi xayolimizda jonlanadi. Lekin Erkin Vohidovning dramaturgik iste’dodi faqat birgina bu mashhur komediya bilan baholanishi mumkin emas. Garchi bu komediya 1970-yildan boshlab o‘zbek tomoshabinining necha-necha avlodlari qalbidan joy olgan, jahoniy shuhrat topgan bo‘lsa ham. Shoirning turli yillarda qog‘ozga ko‘chgan “Ikkinchi tumor” tragikomediyasi, “Istanbul fojiasi” she’riy dramasi, “Malohatga maktublar” nomli fantasmagoriya pyesalarining mavjudligi Erkin Vohidov va teatr mavzusining hali ochilmagan qo‘riq bo‘lib turganidan dalolatdir. Agar shu sanalgan pyesalar qatoriga “Ruhlar isyoni” dostonining 2005-yili Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgani, ustozning yolqinli she’rlari hamda “Donishqishloq latifalari” hajviyoti asosida maxsus adabiy tomoshaviy kompozitsiyalar O‘zbek davlat drama teatri, Satira teatri va Respublikamizning turli viloyat teatrlarida maxsus sahnalashtirilgani, Viktor Gyugoning “Qirolning dilxushi” tragediyasi hamda Gyotening “Faust” falsafiy tragediyasi Erkin Vohidov tarjimasida o‘tgan asr 70 va 80-yillari telespektakl sifatida qo‘yilgani kabi faktlarni e’tiborga olsak, bu qo‘riqning miqyos va ko‘lami kattagina ilmiy tadqiqotga asos berishini tasavvur etish qiyin emas.

To‘laqonli pyesalarning uchtasi – “Oltin devor” Hamza (hozirgi Milliy akademik) teatrida 1970-yil 25-martda atoqli rejissyor Toshxo‘ja Xo‘jayev tomonidan hamda 1996-yili Pokistonda Lahor shahrida “Al-Hamro” teatr kompleksining 1000 kishilik “Komedi Holl” tomosha zalida Ansoriddin Ibrohimov va Dadaxon Nuriy tarjimasida rejissyor Maqsud Yunusov tomonidan; “Istanbul fojiasi” yana shu teatrda 1988-yil 12-mayda rejissyor Nosir Otaboyev tomonidan, bundan biroz avvalroq, 1986-yil iyulida Surxondaryo viloyat musiqali drama va komediya teatrida rejissyor Ne’mat Pardayev tomonidan; 1995-yil sentyabrida “Ikkinchi tumor” tragikomediyasi Ogahiy nomli Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrida rejissyor Mahkam Mahamedov tomonidan sahnalashtirilgani teatr jamoatchiligiga yaxshi ma’lum bo‘lsa-da, ularning ijodiy qismati har xil kechdi. Bulardan asosan “Oltin devor” komediyasining Toshxo‘ja Xo‘jayev rejissyorligidagi postanovkasi 15 yil uzluksiz Milliy teatr sahnasida benazir san’atkorlar – O‘zbekiston xalq artistlari G‘ani A’zamov, Sayfi Olimov, Eminjon Turdiyev, Saboxon Karimova, Ikroma Boltayeva va qator nisbatan yosh aktyorlar ijrosida ming marotabadan ortiq namoyish etildi. O‘sha postanovka hozir ham O‘zbekiston televideniyesi tomonidan tez-tez ko‘rsatilib, yangi-yangi avlodlarning ham ma’naviy xazinasidan joy olmoqda.

Mazmun ko‘lami, badiiy ifoda fasohati, inson qalb holatlarini kashf etish mahoratining teranligiga ko‘ra, Erkin Vohidov dramaturgiyasining doimiy sanoqdagi yana bir namunasi “Istanbul fojiasi” she’riy dramasidir. Mazkur asarning nashr variantida muallif shunday satrlarni ochqich sifatida taklif etadi:

To‘lqinini, bo‘ronini ko‘rmagan odam
Dengiz doim tinch deb o‘ylashi mumkin.
Inson ham shu, farog‘atda beozor, sokin,
Lekin yurak qatlarida to‘fon yashirin.

Bu satrlar o‘z o‘rnida dramaning asosiy qahramonlari Saodat va Jamol tilidan beriladi. Voqea shuki, o‘tgan asr 80-yillari



boshlarida sayohat istagida safarga chiqqan 60 yoshlar yuqorisidagi er-xotin Jamol va Saodat bir oy chamasi O‘rta yer dengizi bo‘ylab haybatli kemada kezinib, Daniyadan boshlab Yevropaning yarim mamlakatlarini ko‘rib, so‘nggi manzil – Istanbulda to‘xtab, so‘ng yurtga qaytishlari kerak. Sayr-u sayohatdan biroz toliqqan er-xotin Istanbulda favqulodda bir hodisaga duch keladilar. Voqea sodir bo‘layotgan paytda dongdor bir kolxozning dongdor raisi bo‘lgan Jamol yigitlik davrida Ikkinchi Jahon urushiga ketib, qahramonlarcha halok bo‘lgan deya qoraxat kelgan ukasi Iskandar bilan uchrashadi. Taqdir taqozosi bilan o‘lmay qolgan Iskandar fashist konslageriga tushib, u yerdan qochgan va bir nemis ayolning yordami bilan oyoqqa turib, o‘sha o‘lkalarda qolib ketgan. Asirlikda bo‘lgan sovet soldatlarini o‘z yurtida sotqin deb qamab, yo‘qotib yuborayotganliklarini eshitib, o‘z ona diyoriga qaytmagan va tirikligi haqida ham hech kimga xabar yetkazmagan. Xorijda hayoti bir izga tushmay, qarilikda Istanbulga kelib, bandargohda biror o‘zbek yurtdoshimni ko‘rarmikanman, deb yolg‘iz kezinib umrguzaronlik qiladi. Va ittifoqo, dengiz bo‘ylab sayohatdan qaytayotgan akasi Jamol va kelinoyisi Saodat bilan uchrashadi. Ming istihola va qo‘rquvda ularga o‘zini tanitadi. Qo‘rquvining sababi, o‘sha davrlarda sovet idoralari kamdan kam fuqarolarga xorijga chiqishga ruxsat berar, shunda ham ularga xavfsizlik idoralari ayg‘oqchilaridan biriktirib qo‘yar edi. Sovet kishilarining xorijda begonalar bilan uchrashishlari ularga nisbatan shubha-gumonlar uyg‘otar va shunga yarasha munosabat belgilanar edi.

Jamol, Saodat Iskandar bilan uchrashadilar. Tabiiyki, Iskandarning birinchi savoli – uni kenjatoyim deb chandon suyguvchi onasining qismatini bilish, onaning urushga ketar chog‘i o‘g‘liga tikib bergan tumorni urushdan qaytib kelgach, vaqti-qazosi yetganda onaning boshiga qo‘yib, o‘z qo‘li bilan ko‘mish vasiyatini ado etishga oid. Iskandar ona vasiyatini bajarolmadimmi, deb adoqsiz ruhiy qiynoqda. Umuman, hayoti nursiz, urush yillari ajal komiga tushmaganidan ming-ming afsusda. Tirik bo‘lib sonda yo‘q, o‘lik bo‘lib esa tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i markazida Jamol akasi o‘rnatib qo‘ygan ramziy qabr – marmar yodgorlikda nomi sharaflarga ko‘milib turibdi. Asar muqaddimasida “Muallifdan” deya Erkin aka quyidagi izohni beradi: “Hayotda qo‘yilgan bir yanglish qadam ba’zan umrlik qiynoqqa sabab bo‘ladi. Men qalamga olgan Iskandarning qismati shunday”.

Dramani tahlilga tortgan ko‘plab adabiyotshunoslar ham pyesani vatanjudolik fojiasi, Iskandarning vatangadolik qismati deya, birinchi planga vatan tuyg‘usini chiqaradilar. Ha, zohiran shunday. Dastlabki o‘qishda o‘quvchi uqadigan g‘oyaviy xulosa shu. Ammo pyesa matniga sinchkovroq nigoh qadagan muxlis yuqorida keltirganimiz she’riy satrlardagi mazmun-mohiyatni inkishof etadi. Ya’ni tinch, sokin dengizni ko‘rib yurgan odam uning to‘lqin-u bo‘roni ne qadar qo‘rqinchli bo‘lishini tasavvur etmaydi. Inson ham farog‘atda beozor yashayotgandek tuyulsa-da, ammo yurak puchmoqlarida dard, alam, isyon po‘rtanalari yetilib turgan bo‘lishi mumkin. Ayni shu holat “Istanbul fojiasi”ning bosh g‘oyaviy maqsadi, aniqrog‘i, botiniy dardi. Fojiani teran namoyon etayotgan hissiy po‘rtana.

Saodat:
Qanday dahshatli!
Isitmada alahlagan odamga o‘xshab
Tun bo‘yi qo‘rqib chiqdim. Bu ko‘rganimiz
Dengizdagi chayqalishdek bo‘ldi.
Jamol:
Chayqalish –
Nima o‘zi! To‘fon bo‘ldi! Men shu bir kunda
Go‘yo butun hayotimni qayta yashadim.
Dunyo ostin-ustun bo‘ldi.

Darhaqiqat, po‘rtana Iskandarning tirik qolib, vatanjudolik azobida ozurda mavjud bo‘lib yurganligi fojiasidan emas, balki uning Saodatga bo‘lgan muhabbati barbod bo‘lgani, bunga asosiy sababchi akasi Jamol ekanligi va azbaroyi alamda o‘z jigaridan ko‘rgan sitam tufaylidan ham yoshiga to‘lmayoq urush janggohlariga ketgani va o‘sha alamzadalik yarasi bitmay, begona yurtlarda qolib ketgani, ona vasiyatini ado etolmay, bir umrlik vijdon qiynog‘ida yashayotganida edi. Ha, Jamol e’tirof etganidek, “dunyo ostin-ustun” bo‘lganida edi po‘rtana. Po‘rtana asnosidagi fojia edi bu qisqa fursatlik uchrashuv. Ayni zamonda bu fursat butun bir kechmish taqdirlarga teng vaqt birligi edi.

Ukasining umr fojiasini anglab, yuragida larzavor bir to‘lqinni his qilgan Jamol endi o‘z vijdoni qarshisida yuzma-yuz bo‘ladi:

Bu yerda men o‘lib ketgan ukam bilan
emas,
O‘lib ketgan vijdon bilan
uchrashib qoldim.

Yolg‘on, soxtalik, haybarakallachilik bilan orttirgan dongdor raislik shuhratini o‘ylab, umri shomida halol-u pokiza bo‘lmoq ahdiga keladi:

Men ahd qildim –
yurtga qaytgach birinchi ish –
Markazkomga borib hamma
gapni aytaman,
Bu unvon-u nishonlarim, shon-u shuhratim
Bari soxta deb aytaman.
Ne bo‘lsa bo‘lsin.
O‘n yetti yil ich-etimni kemirib yotgan
Iztirobdan qutilaman.

Nazarimda, “Istanbul fojiasi”ning mohiyat-g‘oyasi shu lavha va satrlarda bo‘y ko‘rsatadi. Albatta, Iskandarning vatanjudoligi – fojia. Ammo bu ro‘y bergan hodisaning zohiriy tomoni. Botinda esa undan qattiqroq po‘rtana yuz beryaptiki, bu endi boshqa fojialarni muqarrar etyapti, yuzaga chiqaryapti. Bu po‘rtana, avvalo, yolg‘on bilan, soxtalik bilan ushlab turilgan ijtimoiy tuzum – chirib borayotgan sovetlar jamiyatida boshlanayotgan siyosiy, ijtimoiy, ruhiy bo‘hronlar arafasi bo‘lsa, ikkinchidan, ana shu jamiyatda vijdon bilan yashamoqqa uringan insonning qalb fojiasi, o‘zligini yo‘qotish alamlariga qarshi isyoni edi. Jamol aynan shuni nazarda tutib, faryod chekadi:

Tamom! Bari tamom!
Shon-u shuhrat, martaba,
Izzat-obro‘, men tilagan
sokin keksalik,
Ofat to‘lqin yelkasida meni ko‘tarib
Olib borib toshga urdi.
Chilparchin qildi.
Oqibatda nima bo‘ldim? Osmonga qarab
Varanglatib kimdir otgan
mushak men bo‘ldim.

* * *

Iskandarga, bosh egib bor
yurtingga, dedim,
Mana, o‘zim yurtga boshni egib boraman.
Kechir, Vatan, shuhratparast
ekanman, kechir.
Iskandar – oq,
men oldingda yuzi qoraman.
G‘arib yurtda u xoinmas,
inondim, bildim,
Men bag‘ringda yashab turib
nonko‘rlik qildim.

Mana bosh qahramon tilidan aytilayotgan iqror-fojia. Aynan shu lavhada aks etgan holat pyesaning hamma davrlar uchun ham dolzarb o‘qilishi va uqilishi kerakligini anglatadi. Aynan shu kalitni topgan rejissyor bu pyesani har qanday sahnada jaranglata olishi mumkin. Asar nihoyasida Jamol tilidan aytiladigan chuqur falsafiy xulosa “Istanbul fojiasi”ning asl g‘oyaviy mohiyati o‘laroq voqeaga so‘nggi nuqta bo‘ladi:

Bilki, inson umridan agar
Bir kun muddat qolgan bo‘lsa,
o‘sha muddatni
Poklanishga sarf etmog‘i kerak.
Ha, shunda
Nopok o‘tgan – butun umr bir tush bo‘lar-u
O‘sha bir kun hayot bo‘lar.
Chinakam hayot.

Nazaran, bu so‘zlardan keyin keladigan Iskandarning “Oh, Vatanim, buncha yaqin, buncha uzoqsan”, deya dengiz sohilida turib yurt tomon ketayotgan teploxodga xitoban, tiz cho‘kkancha yig‘lab rozi-rizolik tilashi bu avvaldan muallifning asar yuzasida zohiran anglanuvchi mavzu-motivni “tajohili orifona”, ya’ni bilib-bilmaslikka olish usuli asosida qo‘llashi, matn tagzaminidagi bosh maqsadni pardalashi sifatida qabul qilinishi mumkin. Aytganimizdek, pyesaning tilsimini ochuvchi kalit boshqa, ya’ni inson atalmish xilqatning qalb holatlari, uning evrilishlari, o‘zligini topish yo‘lidagi iztiroblari, to‘fon-u isyonlarini anglash, badiiy inkishof etishda.

Tabiiy savol tug‘iladi: nega Erkin Vohidov pyesalarining sahna taqdiri turlicha kechgan? Ularning tomoshabin e’tirofidagi shon-u shuhrati ham turlicha. Sababi shuki, teatr – bu, alohida san’at turi. Pyesaning sahna hayoti eng avvalo rejissyorga bog‘liq. Katta iste’dodlar yaratgan asarlarning bir emas, bir qancha ma’no qatlamlari bo‘ladi. Ularni uqish, tag matnlar, ramz-u ishoralarni his etish oson ish emas. Ta’kidlaganimizdek, ijodiy yondashuv har bir davr, har bir teatr, har bir rejissyorning o‘ziga xos ko‘rimi bilan belgilanadi. Sahnalashtiriladigan spektakl mumtoz pyesa-asarlarning jozib qatlamlariga kirib, uning tilsimini his qilgan ijodkorgagina kalit tutqazadi. Shu ma’noda, Erkin Vohidov hayot yo‘lida Toshxo‘ja Xo‘jayevning uchrashi bu nihoyatda muvaffaqiyatli tandemning muvaffaqiyatli samaralari uchun bosh omil bo‘ldi. Ana shu rejissyor da’vati bilan Erkin aka o‘sha 1970-yilda yana bir g‘aroyib asar – “Ikkinchi tumor” tragikomediyasiga kirishdi.

Mazkur asarni badiiy-g‘oyaviy mazmuni jihatidangina emas, ayni paytda janr nuqtayi nazaridan ham o‘zbek adabiyoti, jumladan, dramaturgiyasidagi dastlabki tragikomediya deyish mumkin. Unda kulgining o‘rni nechog‘lik e’tiborli bo‘lsa, kulgi ortidan keladigan alam-afsus, ruhiy inqiroz, ijtimoiy fojeiylik zalvori ham shunchalik kuchli va teranligi bilan o‘quvchini larzaga soladi. Taassufki, pyesaning sahna hayoti haqida baland pardalarda alyor aytishga asos yo‘q. Chunki uni rosmana tushunib, matnosti qatlamlarini kashf etib, vizual-tasviriy xayolot asosida sahnaviy talqinini ifoda eta oladigan rejissyor topilmadi. Balki ayrim mutasaddi yoki mas’ullar pyesa mazmun-mohiyatiga ko‘ra sovet turmush tarzi, odamlari haqida noto‘g‘ri xulosa chiqarishga sabab bo‘ladi, degan hadik-xavotirga borgan bo‘lishlari ham mumkin. Chunki pyesa, darhaqiqat, shunday mulohazalarga yetaklaydi.

Pyesada personajlar ko‘p emas – beshtagina: turli psixologik tajribalar bilan batamom band 35 yoshlardagi Mizrob Mahmudiy, uning singlisi – talaba bo‘lish orzusidagi Sunbul, psixoterapevt shogird Muattar, Mahmudiyning sinfdosh do‘sti, radiomuxbir Odiljon va barcha “zamzama”larning sababchisi – 22 yoshlardagi Matmusa. Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari”ni bilmagan o‘zbek yo‘q. Bu latifalarning bosh qahramoni Matmusa – dumbulfe’l, g‘o‘r, laqma, noshud bir odam. Nazaran, bu obrazning evolyutsiyasi “Ikkinchi tumor”dan boshlangan bo‘lishi mumkin. Erkin aka “Ikkinchi tumor”da boshlab noshud ko‘ringan, hammol, go‘lax, mardikor bo‘lib, o‘zini har ishga urib yurgan yupun bu yigitni hayotiy dinamikada ko‘rsatib, ijtimoiy tip darajasiga ko‘taradi. Pyesaning birinchi faslida Mizrob Mahmudiy xonadoniga xolodilnik-muzlatgich tuzatadigan soxta usta sifatida kirgan Matmusa, g‘aroyib tajriba o‘tkazayotgan o‘sha psixolog olimning tasodifiy undovi bilan uning jiddiy tajriba obyektiga aylanadi.

Mahmudiy institutni bitirib, o‘n besh yildan beri inson miyasining xaritasini yaratish orzusi bilan mashg‘ul. Undan intervyu olishga kelgan sinfdosh o‘rtog‘i Odiljonga tajribalaridan maqsad nimaligini batafsil tushuntiradi: “Inson miyasining imkoniyatlari chek-u chegarasiz. Uning o‘ndan to‘qqiz qismi umr bo‘yi ishga tushmasdan qolib ketadi. Men oldinga surayotgan fikrning qisqacha mazmuni shu: inson tug‘ilishidan qobiliyatsiz bo‘lmaydi. Faqat muayyan sharoitda bosh miyaning ma’lum nuqtalari harakatsiz qoladi. Paganini tug‘ilgan yurtda skripka bo‘lmaganida, u etik moylovchi bo‘lar edi…”

“Shunday vaqtlar keladiki, psixologiya ilmi inson qobiliyatlarini to‘la, mukammal ochib tashlaydi. Bosh miyadagi milliard chiroqlardan qay biri ko‘proq kuchlanishni ko‘tara oladi, qaysi biri porlab yonishga quvvati yetadi – ilm ravshan aniqlab beradi. Shunda tug‘ilgan go‘dak faylasuf bo‘ladimi, tosh ko‘taradigan polvon bo‘ladimi – tug‘ilish guvohnomasiga qo‘shib yozib beriladi…”

“Mening niyatim inson tafakkuridagi yorug‘ yulduzni topish. Buning ma’nosi – insonning hayotidagi, jamiyatdagi o‘rnini topib berish. Men orzu qilaman: shunday odam bo‘lsaki, u bugungi hayotimizdan chetda qolgan, g‘irt omi, ongi ilm bilan zaxa bo‘lmagan… – yozilmagan oq qog‘oz bo‘lsa. Men uni antropologik, genetik, fiziologik tekshirishlardan o‘tkazsam, tafakkur tarzini o‘zgartirsam, yangi yo‘nalish**, yangi dunyoqarash bag‘ishlab, yangi dunyoning yangi odamini yaratsam”.**

Texnik, texnologik inqilob o‘tgan asrning ikkinchi yarmida jo‘sh urib, 70-80-yillarda favqulodda kashfiyotlarni yaratdiki, bugungi kunda robototexnika insonning har qanday vaziyat va sharoitdagi muqobilini yasab beryapti. Tafakkur jarayonlari bilan bog‘liq har qanday hodisa-holat beistisno to‘lig‘icha temir mashinalar shaklida yasalyapti, ishlayapti. Nuktabin va bashoratmaob shoirimiz Erkin Vohidov o‘sha inqilobiy texnik evrilishlarni ilk paytidayoq ilg‘ab, bu mavzuni turli janr va shakllarda tasvir-u tavsif etishga intildi. Bu mavzu-motivlar o‘tgan asrning 70-yillari boshida “Ikkinchi tumor” pyesasida dastlab keng ko‘lamda ko‘tarilgan bo‘lsa, 1977-yilda yaratilgan “Temirtan daholar” she’rida yanada yorqinroq ifoda topdi.

Umuman, Erkin Vohidovning butun ijodida ilmiy-texnik kashfiyotlarni she’riy satrlarga solish qizil ip bo‘lib o‘tadigan hodisa. Ayni paytda, xuddi “Ikkinchi tumor”dagi kabi, tafakkur yolqinlari har qancha porlab bormasin, biroq insoniy hissiyotlar dunyosiga kira olmaydi, ya’ni to‘la ma’noda inson o‘rnini bosolmaydi, degan qarash qat’iy ta’kidlanadi. Ana shu qarashdan kelib chiqib, bugun global dunyoda yuz berayotgan texnologik inqilob tufayli unga ko‘r-ko‘rona yondashish, sun’iy intellektni barcha insoniy hodisalardan ustun qo‘yish, uning iroda va mezonlariga barcha moddiy va nomoddiy hodisot-voqeotlarni bo‘ysundirish oxir-oqibat umumbashariy halokat – apokalipsisga, diniy-xalqona ifodadagi qiyomat qoyimga olib kelishi muqarrar. Bunday mash’um intihoni ustoz Erkin Vohidov o‘z davrida savqi tabiiy ila his etib, “ogohlik qo‘ng‘irog‘i” o‘laroq “Ikkinchi tumor” pyesasini yozgan edi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, Toshxo‘ja Xo‘jayevning dramaturgiya, teatr borasidagi ustozligi Erkin Vohidovni bu janrning yetuk vakili maqomiga olib kelayotgan edi. Taassufki, mavjud ijtimoiy to‘siqlar Erkin Vohidov dramaturgik iste’dodining yuksak nuqtalarda yana va yana bo‘y ko‘rsatishiga monelik qildi. Pirovardida, teatr san’ati Erkin Vohidov misolida zo‘r yo‘qotishga mahkum etildi. Garchi teatr borasidagi Erkin aka bilan bog‘liq ijodiy tarjimayi hol orada 15-20 yillar o‘tib, yana davom etgan bo‘lsa-da, bu egri-bugri yo‘llarda Toshxo‘ja Xo‘jayevdek benazir san’atkorning yo‘qligi sezilib qoldi. Biroq ijodiy balog‘at pallalarida Erkin Vohidovning vaqti-vaqti bilan dramaturgiya va teatrga murojaat etib turishi ustozning qalbida sahna san’atining yolqini sira so‘nmaganidan dalolatdir.

Erkin Vohidov va teatr mavzusi, ta’kidlaganimizdek, anchagina ko‘lamdor mavzu bo‘lib, teran tadqiqotlarga asos bo‘lgulikdir. Yuqorida ko‘rib o‘tganlarimizdan tashqari, dramaturg asarlariga bevosita va bavosita murojaatlar bo‘lgan, albatta. Shu ma’noda, kelgusida yana qator ma’lumotlar qo‘shilishi, shubhasiz. Ayni chog‘da Erkin Vohidov dramaturgiyasining g‘oyaviy-falsafiy, badiiy mundarijasi, o‘ziga xosliklari xususida keng ilmiy-nazariy va amaliy tahlil-xulosalar ham bo‘lishi tayin. Binobarin, bunga ehtiyoj-zarurat ham kuchliki, boisi, zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi aynan g‘oyaviy-falsafiy, badiiy va yuksak sahna talablari jihatidan mushkul ahvolda. Demak, Erkin Vohidovdek buyuk iste’dodning pyesalariga avvalgi davrlardagiga nisbatan teranroq, o‘tkirroq va e’tiborliroq munosabat zarurdir.

SPORT

MENI VATAN QO‘LLAGAN



Og‘ir atletika bo‘yicha Jahon va Olimpiada chempioni, “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni sohibi Ruslan NURIDDINOV bilan suhbat

– Siz Istiqlol tengdoshisiz. Ismingiz ham mustaqil O‘zbekiston tarixining zarvaraqlariga bir necha bor qayd etilgan. Suhbatni bir ochiq savol bilan boshlamoqchiman. Muvaffaqiyatlaringizdan keyin xorijdan “Bizning mamlakat nomidan qatnashing” degan takliflar ham bo‘lganmi? Bunda moddiy manfaat ham ko‘zda tutiladi, albatta.

– Bilasizmi, ba’zi intervyularimni eshitganlarning ayrimlari “Vatan haqida yolg‘on gapiryapti”, der ekan. Odamlarni tushunish qiyin, yuragingni ochsang, “xushomad qilyapti” deydi, muammoni aytsang, “noshukur ekan” deydi. Talqinlar o‘zgaraveradi. Lekin men baribir aytaveraman: Vatanimni chin dildan sevaman! Ta’ma, ta’nalarsiz, iddaolarsiz!

Siz aytgan takliflar ikki-uch marta bo‘lgan. Lekin ularni hatto oxirigacha eshitmasdan rad etganman. Bu haqda gap boshlanishi bilan: “Yo‘q, men keta olmayman!” deyman. Chunki bu yurt menga hayot berdi, imkon berdi, shon berdi. O‘sha imkoniyatlardan foydalandim. Natijasi niyat, harakat va taqdirga ko‘ra bo‘lyapti. Bugun ko‘ksim shoda-shoda medallarga to‘lganda, ham ma’naviy, ham moddiy rag‘batlarga erishganimdan keyin hammasiga qo‘l siltab, ko‘proq pul, ko‘proq shuhrat ilinjida ketib qolishni insofsizlik deb bilaman. Bu shaxsiy qarashim. Boshqalarning tutumlariga baho bermayman. Har kim o‘z hayotini yashaydi, qarorini qabul qiladi.

Men oddiy oilaning farzandiman. Hech kim qo‘limdan yetaklab, tayyor natijaga olib kelmagan. Meni faqat Vatan qo‘llagan. Qanday qilib? Sharoit yaratib bergan, to‘g‘ri foydalanishga harakat qilganman. Buning uchun bir umr qarzdorman. Shu yurtda tug‘ilganimga shukur qilaman. Faqat menda imkoniyat bo‘lgan, demoqchi emasman. Shu yurtda yashayotgan har bir insonda imkoniyat bor, hamma gap insonning o‘zida. Mehnat, intilish va sabr bo‘lmasa, hech narsaga erisholmaydi kishi.

– Endi o‘ttiz yil ortga qaytsak. Zalda ikki akasining og‘ir atletika bilan shug‘ullanishini tomosha qilib o‘tirgan bolakay Sizga tanish emasmi?

– Tanish, albatta. O‘shanda akalarim 10-12 yoshli o‘smirlar edi. Muntazam mashq qilgani uchun bo‘ydor, mushakdor, chayir yigitlar bo‘lib yetilgandi. O‘sha paytlarda “Gerkules” multfilmi juda mashhur edi. Biz bolalar “Kim kuchli, kim Gerkulesga o‘xshaydi?” deya bahslashardik. Men “Shunaqa toshlarni ko‘tarayotgan akam, nahotki, Gerkules bo‘lsa”, deb o‘ylaganman. Balki o‘sha beg‘ubor hayrat yuragimda og‘ir atletikaga mehr uyg‘otgandir. Hozir akalarim o‘zlari uchun shug‘ullanib turishadi. Men esa havaskorlikdan professional sportga o‘tdim. 1999-yildan jiddiy kirishganman. Eng muhimi, shu yillar ichida sportga mehrim kamaymadi. Hafsalam sovimadi. Bugun ham sevgan ishim bilan mashg‘ulman.

Sport faqat jismoniy kuch manbayi emas. Undan ham muhimi, sport odamda matonatni shakllantiradi. Qiyinchilikka chidashni, yiqilganda turishni, o‘zini qo‘lga olishni o‘rgatadi. Odamda shaxsiyat shakllanadi, iroda mustahkamlanadi va ichki quvvat ortadi.

– Musobaqalarga tayyorgarlik jarayoni haqida to‘xtalib o‘tsangiz?

– Bizda mashg‘ulotdan tashqari hayot deyarli yo‘q, desam ham bo‘ladi. Hayotimiz sportdan iborat. Chunki biz doim sport formasini ushlab turishimiz kerak. Ayniqsa, yuqori natija ko‘rsatish uchun sportchi doim jismoniy holatini nazorat qilib boradi. Bizga faqat Yangi yilga ta’til berishadi, qolgan paytlarda tayyorgarlikdan ortmaymiz. Masalan, bitta musobaqaga tayyorgarlik jarayoni uch oydan besh oygacha davom etishi mumkin. Agar yiliga uchta musobaqada qatnashadigan bo‘lsangiz, hisoblab ko‘ring, deyarli butun yil band bo‘lasiz. Har bir musobaqa – organizm uchun katta yuklama. Ayniqsa, yuqori natija uchun tayyorgarlik ko‘rayotgan sportchiga tiklanish uchun vaqt kerak. Hordiq ham belgilangan tartibda bo‘ladi. Agar musobaqalarni haddan tashqari ko‘paytirib yuborsangiz, bugungi natijangiz yaxshi bo‘lishi mumkin, lekin keyingi yillarda tanangiz pand berib qo‘yadi. Uzoqni o‘ylab ish qilish kerak.

– Raqiblaringizning chiqishini, natijalarini kuzatib borasizmi?

– Ko‘pincha ataylab kuzatmayman. Bunga men uchun juda katta dars bergan bir voqea sabab bo‘lgan. 2010-yil edi. Birinchi marta kattalar o‘rtasidagi jahon chempionatida qatnashyapman. 85 kilogramm vazn toifasidaman. Oxirgi chiqishimni kutib o‘tiribman. Kutish xonasida musobaqa o‘tayotgan podium ham ko‘rinib turadi. Mendan oldin chiqqan raqibim, adashmasam, 200 yoki 201 kilogrammlik toshni ko‘tarayotgan edi. Oxirgi nuqtaga kelganda qo‘li qayrilib, shtanga tushib ketdi. Butun zal shovqinga to‘ldi. Men esa narigi tomonda bularning hammasini ko‘rib o‘tiribman. Tabiiyki, bu holat ruhiyatimga ta’sir qildi. Natijam kutilganday chiqmadi. Shu voqea juda katta saboq bo‘lgan.

Natijalarini eshitishim mumkin. Lekin o‘zim chiqib bo‘lgunimcha ko‘rmayman. Bu faqat mening strategiyam. Boshqa sportchilar ham xuddi shunday qilishi kerak, degani emas.

– Olimpiada chempioni bo‘lganingizda, rekordlar o‘rnatganingizda Sizga havas qiladigan yoshlar safi yanada kengaydi. Ular ham og‘ir atletikaga zo‘r bera boshladi, nazarimda. Lekin musobaqaga boradigan sportchiga jismoniy tayyorgarlikning o‘zi yetarli bo‘lmasa kerak. Bundan tashqari, yana nimalarga e’tibor qaratish kerak?

– Aslida, ko‘p narsa shartmas. To‘g‘ri, ko‘pchilik bu sport turini juda qiyin, juda og‘ir, deb o‘ylaydi. Lekin yosh o‘tib, tajriba ortgani sari uddalash mumkinligini tushunib borasiz, faqat yo‘nalish to‘g‘ri berilsa, bas. Bunda ruhiy holat muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, menga ruhiy tayyorgarlikda musiqa katta yordam beradi. Qizishib ketgan bo‘lsam, biroz tinchlanish uchun mumtoz navolarni eshitaman. Aksincha, yetarlicha qizimagan bo‘lsam, rok qo‘yaman. Eng muhimi, hammadan biroz uzilish. Birovning gapini, g‘iybatini, rejasini, maqsadini eshitmay, o‘zimni eshita boshlayman. O‘zingni o‘zing eshitish juda muhim. Chunki tashqaridan qaraganda, odamning yuzida hammasi joyidagidek ko‘rinishi, lekin ichkarida butunlay boshqa holat bo‘lishi mumkin.

Shunaqa paytda biroz yolg‘iz qolib, o‘zingiz bilan gaplashsangiz, aslida qanday holatda ekaningiz, kayfiyatingiz, nimaga tayyor yoki tayyor emasligingizni tushunib yetasiz.

– Sportchi, ayniqsa, rekord o‘rnatgan chempion keyingi musobaqada undan ham yuqori natija ko‘rsatishni, yana rekord o‘rnatishni maqsad qiladimi?

– Yo‘q. Men ishlashni maqsad qilaman. Chunki ko‘p marta “mana shuncha kilo ko‘taraman”, deb niyat qilganman-u, o‘xshamagan. Keyinchalik boshqacha yondashishni o‘rgandim: “Borib, zo‘r ishlab kelishim kerak”, degan maqsad qo‘yaman. Albatta, ichingizda taxmin bo‘ladi: “Mana buncha kilo bo‘lsa yaxshi bo‘lardi”, degan. Lekin o‘sha raqamni asosiy maqsad qilib qo‘ya olmaysiz. Chunki faqat cho‘qqini ko‘zlasangiz, unga olib boradigan yo‘ldagi jarayonni sezmay qolishingiz mumkin. Bu holatni men navigatorga o‘xshataman. U sizga “mana shu nuqtaga bor, qolganini o‘zing bilasan”, demaydi-ku. Yo‘lning hammasini ko‘rsatib beradi: qayerda burilasiz, qayerda to‘xtaysiz. Sportda ham xuddi shunday.

Bizda bitta musobaqada jami oltita asosiy urinish bo‘ladi – ikkita yo‘nalishda uchtadan. Har bir chiqishga bor kuchingizni berishingiz kerak. Tajribam shuni ko‘rsatdiki: “falon natijani albatta qilishim kerak”, deb emas, “butun jarayon davomida imkon qadar yaxshi ishlashim kerak”, deb chiqsangiz, konsentratsiya ham boshqacha bo‘ladi va natija ham shunga yarasha chiqadi.

– “Bo‘ldi, sportni yig‘ishtiraman, endi murabbiylikka o‘taman”, degan paytlaringiz bo‘lganmi?

– Murabbiylik haqida o‘ylamaganman. Lekin sportni tashlash haqida o‘ylar bo‘lgan, albatta. Har xil jarohatlar, charchoq, oila bilan bog‘liq muammolar – hayotda turli vaziyatlar bo‘ladi. Shunaqa tushkunlikka tushgan paytlarim ko‘p marta bo‘lgan. Bunday vaqtlarda musiqa jonimga ora kiradi. Albatta, yaqinlarimning ham o‘rni juda katta. Ko‘pincha bunday vaqtlarimda onam qo‘llab-quvvatlaydi. Faoliyatim davomida eng ko‘p jon kuydirgan insonlardan biri onam bo‘lgan. Ba’zan o‘zim jahl qilib, “Bo‘ldi, bas qilaman”, degan paytlarim ham kuzatilgan. Shunday paytlarda onam dalda bo‘lib “Sen uchun hammasi oson, uddalaysan”, deb o‘zimga kelishimga yordam beradi.

Hozir umr yo‘ldoshim ham shunaqa – mening yonimda turadigan, jon kuydiradigan ayol. Shuning uchun odam og‘ir vaziyatda yolg‘iz qolmasa, undan chiqib ketish ham osonroq bo‘ladi.

– Farzandlaringiz sportchi bo‘lishni xohlasa, ularni qo‘llab-quvvatlaysizmi?

– Men biroz qattiqqo‘l otaman, ikki qizimning ko‘ngli nozikligini bilsam-da, ularning salomatligi uchun sport bilan shug‘ullanishlarini talab qilaman. Ota sifatida hozirgi asosiy maqsadim – farzandlarimni sog‘lom qilib tarbiyalash. Chunki bugungi zamonda sportsiz yashash qiyin. Bizning butun hayot tarzimiz kamharakatlik bilan o‘tib boryapti: mashinada o‘tiramiz, ishda o‘tiramiz, uyda o‘tiramiz. Hamma narsa telefon, kompyuter, noutbuk orqali hal bo‘ladi.

Oldin biror joyga borish uchun piyoda yurardik. Hozir 200-300 metrga ham mashina chaqiramiz, yetkazib berish xizmatlaridan foydalanamiz. Skuter, samokat – hammasi bor. Hech bo‘lmaganda bir kun vaqt ajratib, jismoniy faol bo‘lishimiz kerak. Ota-ona sport bilan shug‘ullansa, bolalar ham bunga o‘rganadi. Menimcha, sport endi shunchaki tanlov emas, zamon talabi.

– Sportchilar orasida ham “yulduzlik kasali” bo‘ladimi? “Endi men qahramonman, boshqa shug‘ullanmasam ham, musobaqalarga bormasam ham bo‘ladi”, degan kayfiyat kuzatiladimi?

– Medallar jarangidan quloq bitib, pulning rangidan ko‘z xira tortishi mumkin. Lekin bu o‘tkinchi. Sportning shafqatsizligi ham bor. Yoshlar, ko‘proq mehnat qilganlar hech qancha vaqt o‘tmay boshingizda porlagan yulduzingizni olib qo‘yishi mumkin. Bu tabiiy. Lekin o‘z salohiyatini bilib yoki o‘z xohishi bilan sportdagi faoliyatini to‘xtatish boshqa masala. Bu hurmatga loyiq qaror.

O‘zi har bir sportchining asosiy maqsadi – Olimpiada. Ko‘pincha “Olimpiadadan keyin sportchida maqsad qolmaydi”, deyishadi. Lekin bu fikrga qo‘shilmayman. Ertalab mashg‘ulotga kelayotganimda, “Nimaga kelyapman?” deb o‘zimdan so‘rab o‘tirmayman. Men nimaga kelayotganimni aniq bilaman. Chunki ishimni yaxshi ko‘raman. Shuning uchun o‘sha paytdagi maqsadim ham, hozirgi maqsadim ham ishlash, imkon qadar yaxshi natija qilish.

Maqsad – rekordni yangilash, albatta. Rekordni yaqinda ham yangiladim, yana yangilasa bo‘ladiku. Masalan, 2021-yilda jahon rekordini o‘rnatgan bo‘lsam, 2024-yilda yana o‘sha rekordni o‘zim yangiladim. Yana yaxshi natijalar bo‘lishi mumkin. “Men ishimni sevaman”, deganimning sababi ham shu, bu ishdan charchamayman. Allohga shukur, quvvat beryapti, madad beryapti. O‘zimga ham va’da berganman: shu quvvatim bor ekan, ishlayman. Eng katta maqsadim esa – 2028-yilda Los-Anjelesda bo‘ladigan Olimpiada g‘olibi bo‘lish.

– Yuksak maqsadlarga yetishingizni tilaymiz! Vatanimiz bayrog‘i olam uzra hilpirashida kamarbasta bo‘lishda kuch-quvvat, sog‘lik va omad yor bo‘lsin!

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.

OLAM OLIMI

Neytrinolar orqali koinotga nazar: Frensis Halzen



Amerikalik fizik Frensis Halzen neytrino fizikasi va yuqori energiyali astrofizika rivojiga ulkan hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Uning asosiy ilmiy g‘oyalaridan biri – Janubiy qutbdagi ulkan muz qatlamini neytrinolarni qayd etuvchi tabiiy detektor sifatida ishlatish edi. Ushbu g‘oya natijasida IceCube neytrino observatoriyasi yaratildi va koinotni neytrinolar orqali o‘rganishning yangi davri boshlandi.

ILMIY FAOLIYATI

Frensis Halzen Belgiyada tug‘ilgan va KU Leuven universitetida magistrlik hamda PhD darajalarini olgan. 1972-yildan AQSHdagi University of Wisconsin–Madison universitetida faoliyat yuritib kelmoqda. Uning ilmiy qiziqishlari zarralar fizikasi, neytrino fizikasi, kosmologiya, kosmik nurlar va yuqori energiyali astrofizik jarayonlarni qamrab oladi. 1980-yillardan boshlab u neytrinolarni Antarktida muzlarida aniqlash g‘oyasini rivojlantirdi. Bu izlanishlar avval AMANDA tajribasiga, keyinchalik esa IceCube loyihasiga asos bo‘ldi.

NEYTRINO NIMA?

Neytrino – modda bilan juda kuchsiz ta’sirlashadigan elementar zarra. Shu sababli ular Yer, yulduzlar va boshqa moddalar orqali deyarli to‘siqsiz o‘tishi mumkin. Neytrinolar o‘z manbasi haqidagi ma’lumotni deyarli o‘zgarishsiz yetkazib kelishi bilan muhim. Shuning uchun ular orqali oddiy teleskoplar yordamida o‘rganish qiyin bo‘lgan qora tuynuklar, faol galaktikalar va yuqori energiyali kosmik jarayonlar haqida ma’lumot olish mumkin.

JANUBIY QUTB MO‘JIZASI

IceCube observatoriyasi Antarktida muzining taxminan bir kub kilometr hajmini ulkan neytrino detektoriga aylantiradi. Muzning chuqur qatlamlariga minglab optik sensorlar o‘rnatilgan. Kosmosdan kelgan neytrino muzdagi atom yadrosi bilan to‘qnashganda zaryadlangan zarralar paydo bo‘ladi. Ular muz ichida harakatlanib, “Cherenkov” nurlanishi deb ataluvchi juda zaif yorug‘likni hosil qiladi. Optik sensorlar ana shu signallarni qayd etadi. Olimlar ular orqali neytrinoning energiyasi, yo‘nalishi va ehtimoliy kosmik manbasini aniqlaydilar.

ENG MUHIM VOQEA

IceCube tarixidagi eng muhim voqealardan biri 2013-yilda yuz berdi. Observatoriya birinchi marta Quyosh tizimidan tashqaridagi manbalardan kelgan yuqori energiyali astrofizik neytrinolarni aniqladi. Bu kashfiyot neytrino astronomiyasining rivojiga katta turtki berdi. 2017-yilda IceCube uzoqdagi faol galaktikadan kelgan yuqori energiyali neytrinoni qayd etdi. Keyingi tadqiqotlar esa neytrinolarning boshqa kosmik manbalarini ham aniqlash imkonini berdi. 2023-yilda IceCube bizning galaktikamiz – Quyosh yo‘lidan kelayotgan neytrinolarni aniqlash bo‘yicha muhim natijani e’lon qildi. Bu galaktikamizdagi yuqori energiyali jarayonlarni o‘rganish uchun yangi imkoniyat yaratdi.

E’TIROF

2026-yil 6-oktyabrda Shvetsiya Qirollik Fanlar akademiyasi Halzenga Fizika bo‘yicha Nobel mukofoti berilganini e’lon qildi. Mukofot uning IceCube neytrino observatoriyasiga qo‘shgan hal qiluvchi hissasi va astrofizik kelib chiqishga ega yuqori energiyali neytrinolarni kashf etishdagi xizmati uchun berildi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

JAHON AYVONIDA

OVAL KABINET NUSXASI

AQSHda sayyohlar uchun prezident Donald Trampning Oval kabineti nusxasi yaratildi.




“Associated Press” agentligining xabar berishicha, ushbu ekspozitsiya Oq uy yonida joylashgan “Xalq uyi” muzeyidan joy olgan bo‘lib, keng jamoatchilik uchun taqdim etilgan.

SHIMOLIY OROLNI TIKLASH

Qozog‘iston hukumati kelgusi besh-olti yil ichida Shimoliy Orol dengizidagi suv sathini 44 metrgacha ko‘tarishni rejalashtirmoqda.

“KazTAG” nashrining xabar berishicha, mazkur tashabbus natijasida suv havzasining



maydonini 3,9 ming kvadrat kilometrga, suv hajmini esa 34 milliard kub metrga yetkazish ko‘zda tutilgan.

O‘LAT XAVFI

Irkutsk viloyatidagi o‘latga qarshi kurash instituti xodimasining o‘limi ortidan Yevropa Ittifoqi Rossiyadan mazkur holat yuzasidan batafsil ma’lumot taqdim etishni so‘radi.



“Deutsche Welle” nashrining xabar berishicha, ushbu voqea o‘pka o‘lati tarqalishi mumkinligi haqidagi jiddiy xavotirlarga sabab bo‘lmoqda.

LOGISTIK MAJMUA

O‘zbekiston Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi hamda Rossiyaning “Wildberries” kompaniyasi mamlakat hududida “A” sinfiga mansub logistika majmuasini qurish bo‘yicha sarmoyaviy shartnoma imzoladi.



“TASS” agentligining xabar berishicha, mazkur hujjat Farg‘ona shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining III yalpi majlisi yakunida rasmiylashtirilgan.

ISSIQKO‘LDAN TOPILGAN TANGALAR

Qirg‘izistondagi Issiqko‘l tubidan arxeologlar X-XI asrlarga oid Qoraxoniylar davri tangalarini topdi.


Rossiya Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti ilmiy xodimi Maksim Menshikovning ma’lum qilishicha, mazkur topilmalar ko‘l ostidagi o‘rta asrlarga mansub “Toru-Ayg‘ir”



arxeologik majmuasida olib borilgan suvosti tadqiqotlari davomida aniqlangan.

SI YARATGAN MATEMATIK ISHLAR

“OpenAI” kompaniyasi bir kunning o‘zida sun’iy intellekt tomonidan yozilgan 700 dan ortiq matematik ishni internet tarmog‘iga joyladi – bu esa olimlar o‘rtasida katta bahslarga sabab bo‘lmoqda.



Ma’lum qilinishicha, kompaniya e’lon qilinmagan modellar yordamida yuzlab ochiq matematik masalalarni yechishga harakat qilgan va olingan natijalarni “GitHub” platformasiga chiqargan.

MILLAT FIDOYILARI

BIR BUYUK AHD

“Men to‘g‘rilik orqasida bosh ketsa, “ih” deydigan yigit emasman...”

Bu – o‘zbek romanchiligi asoschisi, to‘g‘ri so‘zning to‘qmog‘ini yegan, haq so‘zni aytib qalbi yaralangan, “to‘g‘rilik orqasida” jar yoqasiga borgan Abdulla Qodiriyning so‘zi edi.



Xoliyor SAFAROV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ma’lumki, jadidlarning maqsadi ilm-ma’rifat orqali millat ruhini uyg‘otish, xalqning bo‘ynidagi qullik zanjirini yechish va ularning haq-huquqini tanitish edi. Bu yo‘lda ular turli usullardan foydalanar, yangi maktablar, gazeta-jurnallar, teatrlar tashkil etib, yuraklarga tezroq kirib borish va mudroq qalblarni uyg‘otish maqsadida fidoyilik ko‘rsatar edi. Birgina Abdulla Qodiriy misolida oladigan bo‘lsak, “Tarjimayi hol”ida kamtarinlik bilan “Men tartiblik maktab ko‘rmagan nodon bir yigit edim”, deya qayd etadi. Aslida, u 9-10 yoshlarida maktabga chiqqan, keyinchalik rus-tuzem maktabida saboq olgan, Navoiy va Mashrabni, “Yusuf va Zulayho”, “Huriliqo”, “Chor darvesh”, “Qissatul anbiyo”, “Kalila va Dimna”, “Iskandarnoma”, “Rustami doston”ni o‘qigan, Yoqub Qodiriy, Folih Rafiqiy, Ravshan Ashraf, Yahyo Kamol, Jo‘rji Zaydon, Dante, Gyote, Shiller, Servantes, Chexov, Lev Tolstoy, Gogol kabi yozuvchilar ijodini ko‘p tahlil qilgan, turk, eron, arab tilini yaxshi bilgan barkamol inson edi. Ana shunday salohiyatli, davr talablarini to‘la o‘zlashtirgan Abdulla Qodiriyning ijodiy kamoloti so‘zda va ifodada rostgo‘yligi, millat dardida qayg‘urishi edi.

U 20 yoshida yozgan, “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida e’lon qilingan “Yangi masjid va maktab” nomli ilk maqolasidan boshlab, barcha asarlarida haq so‘zni aytishni o‘zining burchi deb bildi. Oradan ko‘p o‘tmay, “Millatimga”, “Ahvolimiz” kabi otashin she’rlari, “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz” hikoyasi bilan tilga tushgan yozuvchi, Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” kitobida ta’kidlanganidek, “Yozganing agar o‘zingni yig‘latmasa-kuldirmasa, o‘zgani hech yig‘latmas-kuldirmas...” tamoyilini ishlab chiqqan va unga to‘la amal qilgan.

Fitrat “Adabiyot qoidalari” risolasida “Bukun Elbek, Cho‘lpon, Botu, Qodiriy, Sh.Sulaymon kabi o‘zbek adib-shoirlari bor. Bularning “ifoda”lari, albatta, o‘zbek-chadir”, deydi. Abdulla Qodiriyning adabiy talablari nihoyatda baland edi. “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1935-yil 14-mart sonida o‘z ijodi to‘g‘risida yozar ekan, jumladan, shunday deydi: “Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo‘lgan narsam haqidag‘i materiallarni puxta o‘rganib chiqaman. Men biror joy to‘g‘risida yozmoqchi bo‘lsam, o‘sha joyni avval necha martaba ko‘rgan esamda, yana borib tekshirib o‘rganib kelaman”.

Adib “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, “Obid ketmon” qissasini yozishda ham o‘z an’anasiga sodiq qolgan. “O‘tkan kunlar”ni yozishda necha bor Farg‘onaga borgan, Marg‘ilon ko‘chalarida kezgan bo‘lsa, “Mehrobdan chayon”ga material to‘plash jarayonida necha bor Qo‘qonga borgani, xon o‘rdasini ko‘zdan kechirib, eshiklar tepasi, peshtoqlardagi yozuvlarni daftarga ko‘chirib olgani haqida ma’lumotlar bor. “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1935-yil 14-martdagi 60-sonida berilgan xabarga ko‘ra, yozuvchi “Obid ketmon” qissasini yozish maqsadida 1932-1933-yil yoz oylarida Toshkent viloyatining Ko‘kterak qishlog‘i va uning tevaragida, Mirzacho‘l, Alimkent kolxozlarida dalalarni kezib, qo‘llarida ketmon, paxta chopiqlarida qatnashib, bobodehqonlar bilan suhbatlashgan. Qodiriy bu haqda “men kolxozlarda yurganimda haqiqatan ham Obid ketmonning ba’zi xususiyatlariga ega bo‘lgan tipni ko‘rdim”, deydi.

Mashhur adib Ernest Xemingueyning “Kishi buyuk yozuvchi bo‘lishi uchun iste’dod, bilimdan tashqari, baxtsiz bolalik davrini boshdan kechirgan bo‘lishi kerak”, degan gapi bor. Bunday taqdir Qodiriyni ham chetlab o‘tmagan. O‘zi ham “boshimdan kechirganlarim mening yozuvchi bo‘lishimda kattagina rol o‘ynagan”, deb yozgan. Tag‘in u murakkab bir davrda yashadiki, ijodkorlarning har bir so‘zi to‘qmoq bo‘lib qaytib, o‘zining boshiga ham urilar edi. Garchi adib buni bilsa-da, lafzidan og‘ishmay yashadi.

Abdulla Qodiriy eskicha odatlarni, davr illatlarini yaxshi bilar va bunga jim qarab tura olmasdi. Dastlab ularni “Uloqda” hikoyasi orqali ifodaladi va Oybek ta’biri bilan aytganda, ijodda “turmushni badiiy ko‘rsatish” mahoratini namoyon eta boshladi. Keyinchalik qator publitsistik maqolalar bilan birga “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” asarlari e’lon qilindi. Ularda sovetlar davrida xalqni diniy qadriyatlardan mahrum etish jarayoni kechayotgani ro‘yirost qalamga olinadi. Shuningdek, turli adolatsizliklarga chidab turolmagan yozuvchi “Mushtum” jurnalining 1926-yil 25-fevral sonida “Ovsar” taxallusi bilan “Yig‘indi gaplar” maqolasini e’lon qiladi. Shu bilan Abdulla Qodiriy boshi uzra qora bulutlar suza boshlaydi. Muallif o‘z boshiga balo keltirgan “Yig‘indi gaplar”da: *“...mamlakatda islohotga muhtoj masalalar ko‘bdir. Masalan, kattalarga aql va basirat islohoti, muharrirlarga til va ma’no, shoirlarga ilhom va uslub (ma’no bo‘lmasa ham mayli), yoshlarg‘a axloq va kiyim, xotinlarg‘a jabr-u zulm, domlalarg‘a din va salla, “Mushtum” yozg‘uchilarig‘a faqat shaxslarning yoqasiga yopisha berishlik va boshqa mavzular to‘g‘risida o‘ylab ham qaramaslik va hokazo islohotlarga nihoyat darajada ehtiyoj ko‘pdur”*, deydi.

Abdulla Qodiriy nohaqmidi? Afsuski, davr bunday haq so‘zni ko‘tarolmasdi. Oqibatda to‘g‘ri so‘zning to‘qmog‘i o‘z boshiga kelib urildi. Adabiyotshunos Umarali Normatovning yozishicha, “tergov hujjatlarini kuzatganda bir narsa ayon bo‘ladi. Huquq-adliya xodimlari Qodiriyni hibsga olgan daqiqalardan boshlab to sud hukmi chiqarilgunga qadar adolat yo‘lidan borib haqiqatni aniqlashga emas, har bir bob bilan adibga qo‘yilgan ayblarni tasdiqlashga, hatto jinoiy ishni chuqurlashtirishga harakat qilganlar”.

“Men to‘g‘rilik orqasida bosh ketsa, “ih” deydigan yigit emasman...” Qodiriy ana shunday so‘zi bilan amali bir, haqiqat, ozodlik, adolat yo‘lida mardona kurashgan shaxs, yoniq ijodkor edi. Haq yo‘lida u hech narsadan tap tortmasdi. Hatto uch oydan ortiqroq qamoqda yotgan kezlarida, tergov, har xil tazyiqlar paytida ham o‘z sha’nini, qarashlarini mahkam himoya qilgan, bunday alolatsizlikka norozilik sifatida ochlik e’lon qilgan edi. Adibning “Suddagi nutq”idan o‘rin olgan “garchi men turli bo‘hton, shaxsiyat va soxtalar bilan ham anglashilmovchiliklar orqasida ikkinchi oqlanmaydurgon bo‘lib, qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qorako‘zlarning ko‘ngli uchun bo‘lsa ham menga eng oliy bo‘lg‘on jazoni bera ko‘ringiz. Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmog‘on sodda, go‘l, vijdonlik yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma’naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir!” degan so‘zlari nafaqat Abdulla Qodiriy, balki “boshini zo‘r ishga berib qo‘ygan” jadidlar tilidan aytilgan muqaddas so‘z, buyuk bir ahd edi.

1938-YIL 4-OKTYABR OYDINLAR OTILGAN KUN

BIR SURAT TARIXI

Taxminan 80-yillar edi. Uyimizda ingichka temir romchaga solingan, chamasi 35x25 hajmdagi bir fotosurat paydo bo‘lib qoldi. U 1928–1930-yillarda bobomizning loyihalari asosida qurilgan “Katta uy”da turardi.

– Bu qanaqa surat? – deb so‘radim dadamdan.

– Buvangni qamoqdagi surati, – dedilar suratga ma’yus boqib.

– Kim olib keldi?

– Bir guruh ziyoli yoshlar, – deya menga ma’noli qaradilar.

Bobomizga tegishli xat-hujjatlar va suratlar orasida ilgari bunaqasini ko‘rmagandim. Unda soch-soqoli biroz o‘sgan, ko‘zlari g‘amgin bir siymo boqib turardi...



O‘shanda ushbu surat haqida ijikilab so‘rashga botina olmagandim. Chunki u paytlarda dadam bu mavzuda kamroq gapirardilar...

1990-yili O‘zbekiston televideniyasi mendan Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida hujjatli film uchun ssenariy yozib berishimni so‘radi. “Xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir”, deb nomlangan mazkur film, rejissyor Shuhrat Bizzatov tomonidan suratga olinib, o‘sha yili namoyish etilgandi. Ssenariyimda bir she’rdan foydalangandim:

O‘tmishda o‘tib ketgan
bir adib rasmini ko‘rdim:
Alpomishday bir yigit
g‘amgin boqib turar jim.
Soch-soqoli sal o‘sgan,
nigohi – buyuk tilsim,
Filhaqiqat,
izohlab berolmas uni hech kim!

Men ajib mo‘jizani
ko‘rgan kabi lol qotdim,
Shu boismi,
adibni Alpomishga o‘xshatdim.
Yo‘q, u ko‘proq o‘xshardi
Otabekka... xususan,
O‘rdaga keltirilgach,
Oyoq-qo‘li kishanband,
Xondan adl tilagan
Otabekka o‘xshardi.

Keyinchalik Yozuvchilar ushmasining “Do‘rmon” ijodiy uyida Tohir Qahhorni uchratdim. Shoir akamiz kulib suhbatlasha turib, birdan jiddiylashdilar-da:

– Bobongiz haqlarida ishlangan hujjatli filmni ko‘rgandim. Undagi “Surat” nomli she’rimni yozilish tarixi bunday bo‘lgandi. ...Ancha yillar avval, shoir Miraziz A’zam aka: “Bu Abdulla Qodiriyning qamoqdagi surati ekan”, deb menga uni ko‘rsatgandi. Qodiriyning nigohlari menga hech tinchlik bermagandi... – dedilar.

Keyinchalik rassom Aziza Mamatova mazkur fotosurat asosida Abdulla Qodiriyning rus o‘rmondagi holatini tasvirlab, mashhur asarini chizdi. Asardagi adibning g‘amgin va iztirobli ko‘zlari insonni befarq qoldirmasdi. Daraxtlarga qo‘nib turgan qora qarg‘alar esa ko‘p ma’nolarni anglatardi...

Shoir Muhammad Yusuf esa mazkur suratdan olgan taassurotlarini:

“...Tushimga kiradi
Qodiriy bobom,
Bemador, bemajol,
behol, beorom.
Egniga eski bir to‘n
kiyib olgan,
(Shineldir balki u,
kimdandir qolgan.)

O‘sha to‘n yengida
poxol ham borday,
Bobomning yuzlari
oqargan qorday.

Yo‘q, yuzi somonga o‘xshaydi uning,
Charaqlab turuvchi
ko‘zi to‘la mung...”

– deya ifodalagandi.

Oradan yillar o‘tdi. Bir ijodiy yig‘inda kaminani mashhur hofizimiz – Dadaxon Hasanov bilan tanishtirishdi. U kishi uzoq o‘yga tolib:

– 80-yillarda tanish ziyolilardan biri: “Manavi Abdulla Qodiriyning qamoqdagi surati”, deb kichkinagina qog‘ozchani ko‘rsatdi. Uni qo‘limga olib uzoq tikildim... Birdan xayolimga suratchani kattalashtirib, ko‘paytirib odamlarga tarqatish fikri keldi. Oradan biroz o‘tib, niyatimni amalga oshirdim... Undan birini olib hovlingizga ham borgandik. O‘zim esa uyalib uyingizga kirmay, do‘stlarim qaytib chiqqunlaricha ko‘changizda aylanib yurganman, – deb suhbatga yakun yasagandilar.

Uyga kelib, Dadaxon akadan eshitgan gaplarni oqizmay, tomizmay dadamga yetkazdim. Dadam esa:

– O‘sha suratni men o‘zim tarqatganman, – dedilar ming‘ayida kulib.

– Qachon?

– 1956-yil bobongni oqlash ishlari boshlandi. Meni maxsus idoraga chaqirib, otamning “hujjat”lari bilan tanishtirishgan. Ularning orasida ikkita surat bor ekan. Biri dadamni old tomonlaridan, ikkinchisi yon tomonlaridan olingan. O‘shanda bittasini berkitib olib chiqqandim... 1956-yil 9-oktyabrda hukumat bobongni oqladi. Oradan ancha vaqt o‘tgach, kichkina suratdan nusxa ko‘chirtirib, ishonchli tanishlarning biriga bergandim. Bu surat bobongning birinchi qamalishidagi, ya’ni 1926-yildagi surati, – degandilar.

1988-yili “Yosh leninchi” gazetasida, hozirda tarixchi olim Abror Xidirning “Imonim tazyiqi ostida so‘zlayman”, nomli maqolasi chop etilgandi. Unda bobomizning 1926-yili birinchi marta qamalishlari haqida hujjatli ma’lumotlar berilgan. O‘shanda adibning qamoqda yon tomondan tushirilgan surati ham matbuotda ilk marotaba e’lon etilgandi. Keyinchalik Abror Xidir: “Sherkon aka, negadir Abdulla Qodiriyning qamoqda old tomondan olingan surati yo‘q edi”, dedi. Men esa u suratning kechmishini bilsam-da negadir aytgim kelmagan...

Yaqinda bir qarindoshimiz: “Bobongiz “Sharq” nashriyoti majmuasida 1926-yili qamoqda o‘tirgan ekan”, deb qoldi. Men darrov ushbu xabarning iziga tushdim...

Natijada, quyidagi ma’lumotlarni oldim:

...Hozirgi Buyuk Turon ko‘chasida joylashgan “Sharq” nashriyoti majmuasining eng birinchi tarixiy qismi, Turkiston general-gubernatorligining rasmiy xabarnomalari va davlat hujjatlarini chop etish niyatida barpo etilgan ekan.

Ushbu majmuaning ichki hovlisida joylashgan, 1914-yilda qurilgan tarixiy uch qavatli g‘ishtli binosida; XX asrning 20–30-yillarida CHK (Cheka) va keyinchalik NKVDning maxfiy tergov idorasi hamda siyosiy hibsxonalar bo‘lgan ekan. Aynan shu binoning yerto‘la qismida mashhur o‘zbek ziyolilari, xususan, Abdulla Qodiriy saqlangan...


Bino juda qalin g‘ishtli devorlar va chuqur kazematsimon yerto‘lalardan iborat bo‘lib, ovozlar tashqariga eshitilmaskan.

Sho‘rolar davri oxirida va mustaqillik yillarida, bu yerto‘lalardan “Sharq” nashriyotining eski gazeta-jurnallar arxivi va buxgalteriyasi sifatida ham foydalanilgan...

– ... Madaniy meros agentligi direktori Bahodir Abdikarimovning (2024-yil 23-yanvardagi) xabariga ko‘ra, “Sharq” nashriyot-matbaa binolari xususiylashtirilibdi.

– Bizningcha: “Jamoat faollari va tarixchilar tomonidan ushbu yerto‘lalarni buzib tashlamasdan, qatag‘on davriga bag‘ishlangan maxsus “Qatag‘on qurbonlari muzey-filiali”ga aylantirish tashabbusini qo‘llash maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Sherkon QODIRIY



ZAMONDOSH

“Gul bir yon...”

Insonning bir sohada orttirgan tajribasi u boshqa kasbni ixtiyor etganida ham asqotaveradi. Ayniqsa, u o‘qituvchilik qilgan bo‘lsa... “Toshkent Gullari Group” korxonasining art direktori, taniqli tadbirkor Muborak Muxrimova ham Toshkent davlat pedagogika universitetining matematika va informatika fakultetini tugatgan, bir necha yillar shu institutda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Taqdir uni gulchilik yo‘liga boshladi. 2002-yildan korxona asoschisi, qaynotasi Abdulaziz Muxrimov va turmush o‘rtog‘ining qavatida “Toshkent gullari” do‘konida faoliyat yuritdi. Ammo, baribir, pedagogikaga ixlos yana uning qo‘lidan tutdi, O‘zbekistonda birinchi bo‘lib, “Toshkent Gullari School” floristika maktabini tashkil qildi.



1973-yilda respublikaning o‘sha paytdagi rahbari Sharof Rashidov qaroriga ko‘ra, poytaxt markazida “Toshkent gullari” do‘konining bunyod etilishi milliy floristika madaniyatining rivojiga poydevor qo‘yadi. Do‘konga zilziladan keyingi Toshkentni obodonlashtirish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan Abdulaziz Muxrimov direktor etib tayinlanadi. Abdulaziz Muxrimov do‘kon qurilishidan to ishga tushirilguniga qadar bor kuch-g‘ayratini ayamaydi va naq qirq yil butun Toshkentni “gulga burkaydi”. Orada do‘kon faoliyati kengaytirilib, korxona maqomini oladi.

– Turmush o‘rtog‘im Abduaziz Muxrimov bolaligidanoq otasining yonida qarashib o‘sgan, – deydi florist Muborak Muxrimova. – Maktabni tugatib, shu sohani puxtaroq egallash uchun qishloq xo‘jaligi institutida tahsil olgan. Men esa institutda ishlardim, xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqardim. Qo‘shimcha tarzda ingliz tili kurslarida ham o‘qidim. Lekin nasibam “Toshkent gullari”da ekan, dastlab ma’muriyat ishlari bilan shug‘ullanib, so‘ng butunlay korxonada ishlab qoldim.

Dastlab Muborak Muxrimovada gullarga shunchaki havas bor edi, xolos. Qolaversa, yosh oila, bolalar tarbiyasi, uy-ro‘zg‘or ishlari-yu, oliy ta’lim tizimidagi mas’uliyatidan ortmasdi. Lekin o‘tgan-qaytganda do‘kon ishlariga ham qarashib qo‘yardi. Ammo turmush o‘rtog‘ining qo‘li qo‘liga tegmay ishlayotganiga shunchaki qarab turolmadi. 2002-yilda korxonaga to‘liq ishga o‘tdi. Sohani chuqurroq o‘rganish uchun tinimsiz o‘qidi, o‘rgandi, izlandi. O‘zbekiston ishbilarmon ayollar Assotsiatsiyasi tomonidan Germaniyada o‘tadigan dizayn va floristika san’atiga oid treningda ishtirok etib, gulchilik ilmidagi yangiliklar bilan tanishdi.

– Germaniyada kasb-hunar o‘rgatuvchi o‘quv yurtlarida florist-dizaynerlik yo‘nalishi bor ekan, – deydi Muborak opa. – Ikki-uch yillab shu soha bo‘yicha maxsus bilim berilarkan. Bo‘lg‘usi floristlar haftaning uch kunida nazariy bilim olsa, qolgan kunlari gul do‘konlarida amaliyot o‘tarkan. Ya’ni, dual ta’lim tizimiga asoslangan ekan. Bizda bu soha reyestrga ham kirmagan edi, hatto. Albatta, oilam, bolalarimni tashlab Germaniyada buncha uzoq muddat o‘qiy olmasdim. Moskva shahrida Nikol florist-dizaynerlik maktabi mavjudligini, unda sirtqi o‘quv kurslari tashkil etilganini eshitib, o‘qish taraddudiga tushdim. Nikol maktabida nima o‘rgangan bo‘lsam, O‘zbekistonga tatbiq qilishga harakat qildim. Keyinchalik menga saboq bergan ustozlarimni mahorat darslari o‘tib berishi uchun Toshkentga taklif qila boshladim. Shu yo‘l bilan xodimlarni ham o‘qitdik.

O‘zbekistonning taniqli floristi bo‘lishiga qaramay, Muborak Muxrimova hamon o‘qiyapti. Nikol maktabida bakalavr darajasida tahsil olgan bo‘lsa, ayni paytda bilimini magistratura tizimida mukammallashtirmoqda.

Bu orada “Toshkent gullari”ning vitrinasi tubdan o‘zgardi, guldastalar tur va estetik jihatdan boyidi. Berilgan keng imkoniyatlar tufayli boshqa sohalar qatorida katta maydonlarda gul yetishtirish ishlari ham qisqa vaqt ichida keskin rivojlandi. Shu bilan birga, boshqa davlatlardan gullarning yangi navlarini olib kelib ko‘paytirish ham yuqori bosqichga chiqdi. “Toshkent gullari” esa floristikaning O‘zbekistondagi yo‘lchi yulduzi bo‘lib, milliy brendini yaratdi. Uzoq yillar mamlakatimizda o‘tadigan yuksak darajadagi tadbirlarni bezash ishlari “Toshkent gullari” korxonasi zimmasida bo‘lgan. Borabora butun kuch-g‘ayrat floristikaga yo‘naltiriladi.

Muborak opada guldasta tayyorlash ishlaridan tashqari, floristikaga san’at va kasb sifatida yangicha qarash, uni muntazam o‘rganish barobarida, boshqalarga ham o‘rgatish g‘oyasi shakllandi. Gulchilikni yaxshi tushunadigan mutaxassis ishchi topish muammosiga ko‘p uchragani bois, floristika kurslarini tashkil etishni niyat qildi. Xalqaro Vestminster universitetida marketing bo‘yicha tahsil olayotgan o‘g‘li Muxrimbekning kurs ishi – floristika maktabi ochish loyihasi taqdimotining jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinishi Muborak opaning istagini ro‘yobga chiqardi. Oila a’zolarining qo‘llovi bilan “Toshkent Gullari Group” xususiy korxonasi qoshida “Toshkent Gullari School” floristika maktabining ikki oylik floristika va dizaynerlik kurslari ish boshladi. Muborak Muxrimova xalqaro gulchi murabbiylar ko‘magida maktabning nizomi va yo‘l xaritasini tuzdi. Nazariy dars soatlarini mavzulashtirdi, xalqaro darajadagi floristlarning tematik seminarlarini o‘quv rejasiga kiritdi. Amaliyot mashg‘ulotlari uchun alohida dasturlar ishlab chiqdi.

– Kurslarimizda bugungacha qariyb yarim ming professional gulchi-dizaynerlar yetishib chiqdi, – deydi maktab asoschisi Muborak opa. – Bir kursga 16 va undan yuqori yoshdagi 10-12 nafar o‘rganuvchi qabul qilamiz. Meni quvontirgani – xorijga ko‘chib ketgan vatandoshlarimiz orasida ham kelib, shu maktabda o‘qib ketayotganlar bor. Boshqa davlatlarda bu sohada o‘qish juda qimmat bo‘lgani uchun ular bizning maktabimizga kelib o‘qishyapti. Amerika, Germaniya, Angliya, Koreyadan kelishdi, o‘qishdi. Maktab faoliyati moliyaviy jihatdan o‘zini oqlaydi, deb aytolmayman, chunki xorijdan master-klass uchun prfessional ustozlar chaqiraman, ularning joylashuvi, xarajatlari deganday... Undan tashqari, yosh floristlarning ijodiy ishi uchun mahsulot korxonadan olinadi va tayyorlagan ishi o‘ziga beriladi. Chunki, kompozitsiya yasashim kerak, deb o‘quvchi bozorma-bozor yurib mahsulot izlamasin, vaqt va kuch yo‘qotmasin, deymiz. Ikki oy ichida o‘quvchilarimizga floristika sirlarini “a”dan “ya” gacha o‘rgatamiz. Saboqni gulning turi, ishtahasi, xarakterini o‘rgatishdan boshlaymiz. Kurs davomida tinglovchilar har darsda bittadan ijodiy ish topshiradi, oxirida yakuniy imtihondan o‘tadi. Imtihondan o‘tganlargina sertifikat oladi. Pulini to‘ladi, qolganini o‘zi biladi, demaymiz.

Har soha ishq tufayligina san’at maqomiga yetadi. Guldasta yasashni san’at darajasiga olib chiquvchi omil ham muhabbat, mehnat va ijoddir. Shu bois, “Toshkent Gullari School”da estetik did va tafakkur ham rivojlantiriladi. Taniqli adib Ralf Emersonning ajoyib bir gapi bor: “Gullar zaminning osmonga tabassumidir”. Darhaqiqat, anvoyi gullar – tinch va farovon hayot ramzi. Xotirjamlik va baxtiyorlik yo‘q joyda, ming chiroyli bo‘lsa-da, gul ko‘ngilga sig‘maydi. Biz esa bu gulgun dunyoda ona zaminimiz har doim osmonga tabassum qilishini istaymiz.


Muhayyo RUSTAMOVA

TUHFA



Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bugungi kunda jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga jiddiy e’tibor qaratilayotganidan barchamiz yaxshi xabardormiz. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida “Mard askarga sovg‘a” ruknida mo‘jaz kitoblar chop etib kelinayotgani xayrli ishlardan biridir. Yaqinda ushbu seriyada yana bir turkum asarlar nashr etildi.

MARD ASKARLAR UCHUN



To‘plamlardan biri “Mardlik” deb nomlanadi. Taniqli yozuvchi Temirpo‘lat Tillayevning shu nomli qissasida mardlik va matonat, or-nomus, halollik, Vatan va el-yurt oldidagi burchga sadoqat tuyg‘ulari tarannum etilgan.

Hikoyalardan tashkil topgan uch to‘plam “Onamning yurti”, “Qahramon” va “Mustaqillik” nomlari bilan taqdim etilgan. Sevimli adiblarimiz Xayriddin Sultonning “Onamning yurti”, Erkin A’zamning “Stupka”, Uyg‘un Ro‘ziyevning “Urushdan qolgan imorat”, Abduqayum Yo‘ldoshevning “Qahramon”, Ulug‘bek Hamdamning “Vatan haqida qo‘shiq”, Nabi Jaloliddinning “Mustaqillik”, Xoliyor Safarovning “Ona vidosi” hamda Jasur Kengboyevning “Tor ko‘cha” hikoyalaridan iborat mazkur kitoblar yosh harbylarimizning doimiy hamrohiga aylanishiga ishonamiz.



“Tomirlarim qoni Vatan” va “Qalqon bo‘lgan o‘g‘lonlar” nomli she’riy to‘plamlar buyuk mutafakkirlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning o‘lmas satrlari bilan boshlanib, Abdulla Avloniy, Hamza, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Hamid Olimjon singari otashnafas shoirlarimizning yuksak vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan asarlarini ham qamrab oladi. Zamonaviy adabiyotimizning zabardast vakillari va yosh ijodkorlarning mavzuga oid eng sara she’rlari mushoirani davom ettiradi.

Turkum Abdusattor Jumanazar, Inobat Nodirshoh, Shodmonqul Salom, Bobur Elmurodov, Zulfiya Yunusova kabi ijodkorlarning “Er jangchi”, “Bug‘doy boshog‘i”, “Yigitlar, ho‘ yigitlar”, “Qirqingiz qilich bilan keling”, “Vatanning har zarrasi aziz” esselaridan iborat to‘plam bilan yakunlanadi.



Mard askarlarimiz doim yonlarida olib yurishlari uchun mo‘ljallangan qulay formatdagi ushbu to‘plamlarning har biri “Adabiyot” nashriyotida 6 ming nusxadan chop etilgan.

Nigina ISKANDAROVA

TILBILIM

ZAMIN “DARG‘A”SI

Yaqinda mo‘g‘ulistonlik hamkasblar bilan tashrif qog‘ozi almashdik. Qarasam, lavozimi degan joyiga *“darga”* deb yozilgan. Shunda: “Bu o‘zimizning *“dorug‘a”* emasmi?” deya so‘radim. Ular shunchaki yelka qisib, *“председатель”* deb qo‘ya qolishdi. Biroq bu javobdan qoniqmay, darrov “so‘zquvar”likka tushib ketdim.

“Aqlvoy”ning aytishicha, mazkur atama sof mo‘g‘ulcha bo‘lib, *“daru-”* fe’lidan olingan. Bu esa *“bosmoq”, “ezmoq”,* asosan *“muhr bosmoq”* degan ma’nolarni bildirarkan. O‘sha davr sharoitini hisobga olsak, “aholini ko‘tarilib ketishdan bosib turadigan” degan mazmun ham chiqar balki... Ushbu o‘zakka *“-ga”* qo‘shimchasi qo‘shilishi bilan *“darug‘a” (ya’ni “muhr bosuvchi rahbar”, “o‘z hukmini o‘tkazuvchi”)* so‘zi hosil bo‘lgan.

Bu ibora yurtimizga Chingizxon bilan kirib keldi. Amir Temur davrida va undan keyingi xonliklar zamonida uning



vazifasi biroz o‘zgardi. Endi u katta viloyat hokimligidan *“tushib”, “shahar egasi”* yoki *“mirshablar boshlig‘i”*ga aylandi.

Mazkur termin hind va urdu tillarida ham uchraydi. U yerga qanday borganini sezgandirsiz? XVI asrda janub sori boburiylar birla yo‘lga chiqqan so‘z “bir dumalab”, *“darog‘a”*ga, ya’ni bojxona, zarbxona yoki mirshabxona rahbariga aylandi.

Bugungi adabiyotimizda ba’zan u “kapitan” ma’nosini beradi. Chunki Boburiylar imperiyasi davrida dengiz floti nazoratchisi “Dorug‘a-i bahr” deb yuritilgan. Ehtimol, Hind diyoriga ingliz qo‘shinlarining suv orqali kelganiga ham nozik ishoradir bu?

Mamluklar davridagi Misrda *“shahar komendanti”, “qorovulboshi”* va *“qal’a nazoratchisi”* ma’nolarida qo‘llangan. Oltin O‘rda saroylarida esa knyazliklardan o‘lpon yig‘ishni nazorat qiluvchi *“xon noibi”* ham shunday atalgan. Hozirgi rus tilidagi *“даруга”* so‘zi ham aynan shu tarixiy mazmunga ega.

Shahriyor SHAVKAT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 167
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 601
Lotin yozuvida – 11 566
Media kuzatuvchilar – 90 297
Buyurtma: G – 1040
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI